TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI




# O‘QUV USLUBIY MAJMUA



TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

## MOLIYA
**yo'nalishi**

## "DAVLAT MOLIYASI"
**moduli bo'yicha**

# O'QUV-USLUBIY MAJMUA

**Toshkent – 2022**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**


**Tuzuvchi:** Gofurov D.B.- TDIU, “Moliya” kafedrasi dotsenti, PhD

**Taqrizchi**: Elmirzaev S.E.- TMI, iqtisod fanlari doktori, professor,



**Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 31 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## MUNDARIJA

**I. ISHCHI DASTUR ........ 4**

**II. MA’RUZA MATNLARI ........ 17**

**III. AMALIY MASHG’ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO’YICHA TAVSIYALAR ........ 72**

**IV. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR ........ 78**

**V. KEYSLAR BANKI ........ 81**

**VI. GLOSSARIY ........ 88**

**VII. ADABIYOTLAR RO’YXATI ........ 90**

# I. ISHCHI DASTUR

## KIRISh

Mazkur ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477- sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda

kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## Modulning maqsadi va vazifalari

**“Davlat moliyasi” modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilarida davlat moliyasi va uning kontseptual asoslarini, davlat moliyasiga oid xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarini, zamonaviy sharoitlarda davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning ustuvor yo’nalishlari bo’yicha ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Davlat moliyasi” **modulining vazifalari:**

- davlat moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarning davlat moliyasiga oid ilmiy qarashlari haqidagi ilmiy bilimlar bazasini aniqlashtirish;
- zamonaviy sharoilarda fiskal siyosat va uning kontseptual asoslari bo’yicha tinglovchilarnining bilimi, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish;
- zamonaviy sharoitlarda jahon mamlakatlari davlat moliyasi tizimidagi mavjud dolzarb muammolar, byudjet taqchilligi, davlat qarzlarini boshqarish tizimiga oid tinglovchilarning layoqatlarini rivojlantirish.

## Modul bo’yicha tinglovchilarning bilim, ko’nikma, malakasi va kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar

“Davlat moliyasi” kursini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida**:**

***Tinglovchi:***

- davlat moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, u haqidagi klassik va zamonaviy ilmiy qarashlarniing kontseptual asoslari;
- zamonaviy sharoitlarda O’zbekiston Respublikasi davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning kontseptual asoslari, byudjet-soliq tizimidagi islohotlarning samarali iqtisodiy o’sishni ta’minlashga ta’siri, amaldagi ijtimoiy islohotlardagi roli;
- inqirozning navbatdagi to’lqini sharoitida davlat moliyasi tizimidagi dolzarb muamolar va islohotlarning ustuvor yo’nalishlarini ***bilishi kerak.***

***Tinglovchi:***

- moliya tizimida davlat moliyasining o’rni va ahamiyatini iqtisodiy jihatdan baholay olish;
- davlat byudjeti daromad va xarajatlari parametrlarining gorizontal va vertikal tahlil qilish natijasida byudjet-soliq siyosatining strategik maqsadlari realizatsiyasi to’g’risida xulosalar tizimini shakllantirish;
- iqtisodiyotdagi soliq yuki va davlat byudjet xarajatlari multiplikativ samarasini baholash;
- rivojlangan mamlakatlar davlat moliyasi tizimidagi dolzarb muammolar va ularni hal qilish yo’llari bo’yicha islohotlarning ustuvor yo’nalishlariga oid xulosalarni shakllantirish ***ko’nikmalarini egallashi zarur.***

***Tinglovchi:***

- davlat moliyasi va uni boshqarishning funktsional elementlari asosida komlpeks tahlilini amalga oshirish;
- zamonaviy sharoitlarda fiskal siyosat va uni samarali iqtisodiy o’sishga

ta’sirini miqdoriy jihatdan tahlil qilish va xulosalarni shakllantirish;

- rivojlangan mamlakatlar davlat moliyasi tizimida kuzatilayotgan dolzarb muammolar, ularga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash;

- mamlakatimiz davlat moliyasi tizimidagi yaqin va istiqbolga mo’ljallangan islohotlar strategiyasini tahlil qilish va o’ziga xos ravishdagi taraqqiyot senariysini ishlab chiqishga oid ***malakalarni egallashi lozim;***

***Tinglovchi:***

- moliya tizimi, davlat moliyasi, moliyaviy siyosatning kontseptual asoslari bo’yicha ilmiy va amaliy ma’lumotlar bankini shakllantirish va ularni tizimlashtirish;

- moliya tizimi, davlat moliyasiga oid zamonaviy ilmiy qarashlar, O’zbekistonda davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning ustuvor yo’nalishlariga oid yangi ilmiy va amaliy ma’lumotlarni tizimlashtirish;

- davlat moliyasiga oid zamonaviy bilimlarga asoslangan holda mutaxassislik guruhlarida ma’ruza va amaliy mashg’ulot olib borish ***kompetentsiyalarni egallashi lozim.***

## Modulni tashkil etish va o’tkazish bo’yicha tavsiyalar

“Davlat moliyasi” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

O’quv jarayonida ta’limning interfaol o’qitish metod, shakl va vositalari, pedagogik va axborot-kommunkatsiya texnologiyalarini qo’llash nazarda tutilgan:

- ma’ruza mashg’ulotlarida “Aqliy hujum”, “Kutish yo’ldoshi”, “Kontseptual jadval”, “O’ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing” kabi interfaol o’qitish metod, shakl va vositalaridan;

- amaliy mashg’ulotlarda bahs-munozara, tushunchalar tahlili, aqliy hujum, keys, guruhlarda ishlash, SWOT- tahlil jadval, T-jadval kabi interfaol o’qitish metod, shakl va vositalarni qo’llash nazarda tutiladi.

## Modulning o’quv rejadagi boshqa modullar bilan bog’liqligi va uzviyligi

“Davlat moliyasi” moduli bo’yicha mashg’ulotlar o’quv rejadagi “Korporativ moliya”, “Zamonaviy moliya tizimi” hamda “Davlat qarzlarini boshqarish” kabi o’quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

## Modulning oliy ta’limdagi o’rni

Modulni o’zlashtirish orqali tinglovchilar moliya tizimi, davlat moliyasi, moliyaviy siyosatning kontseptual asoslari bo’yicha ilmiy va amaliy ma’lumotlar bankini shakllantirish va ularni tizimlashtirish bo’yicha kompetentlikka ega bo’ladilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

| № | Modul mavzulari | Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Auditoriya o'quv yuklamasi | | | |
| | | jami | jumladan | | |
| | | | Nazariy mashg'ulot | Amaliy mashg'ulot | Ko'chma mashg'ulot |
| 1 | Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy roli | 4 | 2 | 2 | |
| 2 | Davlat moliyasining mohiyati va zamonaviy sharoitlarda undagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari | 4 | 2 | 2 | |
| 3 | Davlat moliyasi nazariyasi haqidagi ilmiy qarashlarning kontseptual asoslari | 4 | 2 | 2 | |
| | **Jami:** | **12** | **6** | **6** | |

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### 1- mavzu: Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy roli.

Bozor va davlat: bozordagi nobarqaror vaziyatning kuzatilishi davlat aralashuvining asosi sifatida. Monopoliya. Davlatning bozorga aralashuvi. Axborot assimetriyasi. Tashqi samara. Barqarorlikning birinchi teoremasi. Barqarorlikning ikkinchi teoremasi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va uni ta'minlashda davlatning vazifalari. Bandlik. Ichki narxlarning barqarorligi. Davlatning iqtisodiy vazifasi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy agent sifatidagi va jamiyatning siyosiy instituti sifatidagi o'rni hamda ahamiyati.

### 2-mavzu: Davlat moliyasining mohiyati va zamonaviy sharoitlarda undagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari

Davlat moliyasi. Davlat moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Davlat moliyasining bo'g'inlari. Davlat byudjeti. Byudjet tizimi. Byudjet tuzilmasi. Byudjet federalizmi. Markazlashtirilgan moliya. Markazlashtirilmagan moliya. Byudjetdan tashqari fondlar.

Moliyaviy siyosat-iqtisodiy siyosatning tarkibiy eementi sifatida. Siyosat tushunchasining mazmuni. Byudjet-soliq (Fiskal) siyosati. Byudjet-soliq siyosati va uning turlari. Diskretsion fiskal siyosat. Nodiskretsion fiskal siyosat. Zamonaviy sharoitlarda byudjet-soliq tizimidagi islohotlarning strategik yo'nalishlari.

### 2-mavzu: Davlat moliyasi nazariyasi haqidagi ilmiy qarashlarning kontseptual asoslari

Mumtoz iqtisod nazariyasi asoschilari U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, P.Buagilber kabilarning ilmiy ishlarida davlat moliyasi nazariyasi. Yangi tarixiy maktab kontseptsiyalari mualliflari G.Shmoller, M.Veber, A. Vagnerlarning ilmiy qarashlarida davlat moliyasi.

J.M.Keyns ilmiy qarashlarida davlat moliyasining talqini. Neokeynschilik nazariyasi namoyondalarining davlat moliyasiga oid qarashlari. Zamonaviy monetarizm nazariyasida davlat moliyasiga oid ilmiy qarashlar.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### 1-amaliy mashg'ulot:
### Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy roli.

Bozor va davlat: bozordagi nobarqaror vaziyatning kuzatilishi davlat aralashuvining asosi sifatida. Monopoliya. Davlatning bozorga aralashuvi. Axborot assimetriyasi. Tashqi samara. Barqarorlikning birinchi teoremasi. Barqarorlikning ikkinchi teoremasi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va uni ta'minlashda davlatning vazifalari. Bandlik.Ichki narxlarning barqarorligi. Davlatning iqtisodiy vazifasi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy agent sifatidagi va jamiyatning siyosiy instituti sifatidagi o'rni hamdja ahamiyati.

### 2-amaliy mashg'ulot:
### Davlat moliyasining mohiyati va zamonaviy sharoitlarda undagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari

Davlat moliyasi. Davlat moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Davlat moliyasining bo'g'inlari. Davlat byudjeti. Byudjet tizimi. Byudjet tuzilmasi. Byudjet federalizmi. Markazlashtirilgan moliya. Markazlashtirilmagan moliya. Byudjetdan tashqari fondlar.

Moliyaviy siyosat-iqtisodiy siyosatning tarkibiy eementi sifatida. Siyosat tushunchasining mazmuni. Byudjet-soliq (Fiskal) siyosati. Byudjet-soliq siyosati va uning turlari. Diskretsion fiskal siyosat. Nodiskretsion fiskal siyosat. Zamonaviy sharoitlarda byudjet-soliq tizimidagi islohotlarning strategik yo'nalishlari.

## 3- amaliy mashg'ulot:

## Davlat moliyasi nazariyasi haqidagi ilmiy qarashlarning kontseptual asoslari

Mumtoz iqtisod nazariyasi asoschilari U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, P.Buagilber kabilarning ilmiy ishlarida davlat moliyasi nazariyasi. Yangi tarixiy maktab kontseptsiyalari mualliflari G.Shmoller, M.Veber, A. Vagnerlarning ilmiy qarashlarida davlat moliyasi.

J.M. Keyns ilmiy qarashlarida davlat moliyasining talqini. Neokeynschilik nazariyasi namoyondalarining davlat moliyasiga oid qarashlari. Zamonaviy monetarizm nazariyasida davlat moliyasiga oid ilmiy qarashlar.

## KO'CHMA MAShG'ULOT MAZMUNI

Ushbu moduldan o'quv reja va dasturda ko'chma mashg'ulot rejalashtirilgan.

## O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi:

→ *o'quv ishini tashkillashtirishning interfaol shakllaridan:* binar-ma'ruza, provakatsion-ma'ruza, savol-javobli ma'ruza, suhbat-ma'ruzalar orqali tashkillashtirish nazarda tutilgan.

→ *o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari sifatida quyidagilardan foydalanish nazarda tutilgan:*

- ma'ruza mashg'ulotlarida ommaviy, juftlik, individul;
- amaliy mashg'ulotlarda guruhli, jamoaviy, juftlik, individual.

# II. MODULNI O’QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

**1-ma’ruza mashg’ulotida** quyidagi interfaol o’qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Mashg’ulotning motivatsiya bosqichida: “Aqliy hujum”dan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → “Milliy iqtisodiyotda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda davlat moliyasining o’rni qanday deb hisoblaysiz?”

2) Tinglovchilarning moliya tizimi, davlat moliyasi, davlat moliyasining bo’g’inlari, fiskal siyosat instrumentlari haqidagi ma’lumotlarni bilishlari va bilishni istayotgan ma’lumotlarini aniqlash maqsadida **“B /B /B”** metodidan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari bo’yicha bilgan ma’lumotlarni birinchi ustunga yozib chiqish va bilishni istayotgan ma’lumotlarni ikkinchi ustunga yozib chiqish.

**“B /B /B”**

| Bilaman | Bilishni istayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| **Makroiqtisodiy barqarorlik** | Daromadlarni taqsimlash | Lorents chizig’i |
| **Davlat jamiyatning siyosiy instituti sifatida** | Jinni koefitsienti | Ditsel koeffitsienti |
| | Resurslarni taqsimlash | |
| | | |

3) Tinglovchilarning zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg’or xorijiy tajribalarga oid tayanch ma’lumotlarni aniqlash maqsadida **“Tushunchalar tahlili”** metodidan foydalaniladi.

**“Tushunchalar”- tahlili**

| Tushunchalar | Sizning fikringizcha ushbu tushuncha nimani anglatadi? | Qo’shimcha ma’lumot |
|---|---|---|
| **Davlat** | | |
| **Markazlashtirilgan fondlar** | | |
| **Davlat byudjeti** | | |
| **Fiskal siyosat** | | |

**Amaliy mashg'ulotda** quyidagi interfaol o'qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Tinglovchilarning konfederativ tashkiliy tuzilmalar, federativ, unitar mamlakatlar davlat moliyasi tizimi modellari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida "SWOT – tahlil" metodidan foydalaniladi.

*Topshiriq mazmuni →* O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi va undagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari g'oyasini tahlil qilish.

***"SWOT - tahlil" jadvali***

| | |
|---|---|
| **S**<br>(kuchli tomoni) | **W**<br>(kuchsiz tomoni) |
| **O**<br>(imkoniyatlar) | **T**<br>(tahdidlar) |

2) Tinglovchilarning davlat moliyasi va korporativ moliya bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida "**Kontseptual jadval**" metodidan foydalaniladi.

**Kontseptual jadval**

| *Aspekt tahlili* | **Davlat moliyasi** | **Korporativ moliya** |
|---|---|---|
| Faoliyat sohasi | | |
| Elementlari | | |
| Mazmuni | | |
| Maqsadi | | |
| Qamrab oluvchi fondlar | | |

**2- ma’ruza mashg’ulotida** quyidagi interfaol o’qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Mashg’ulotning motivatsiya bosqichida: “Aqliy hujum”dan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → “Zamonaviy moliya tizimida davlat moliyasining tutgan qanday o’ringa ega?”

2) Tinglovchilarning davlat moliyasi tizimi, siyosat, moliyaviy siyosat, monetar siyosat, fiskal siyosat kabi ma’lumotlarni bilishlari va bilishni istayotgan ma’lumotlarini aniqlash maqsadida **“B /B /B”** metodidan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → davlat moliyasi va moliyaviy siyosat bo’yicha bilgan ma’lumotlarni birinchi ustunga yozib chiqish va bilishni istayotgan ma’lumotlarni ikkinchi ustunga yozib chiqish.

**“B /B /B”**

| Bilaman | Bilishni istayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| Davlat byudjeti | Klassik tavsifdagi moliyaviy siyosat | Moliyaviy siyosatning strategik yo’nalishlari |
| **Moliyaviy siyosat** | Moliyaviy strategiya | |
| | | |

3) Tinglovchilarning zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg’or xorijiy tajribalarga oid tayanch ma’lumotlarni aniqlash maqsadida **“Tushunchalar tahlili”** metodidan foydalaniladi.

**“Tushunchalar”- tahlili**

| **Tushunchalar** | **Sizning fikringizcha ushbu tushuncha nimani anglatadi?** | **Qo’shimcha ma’lumot** |
|---|---|---|
| **Siyosat** | | |
| **Davlat moliyasi tizimi** | | |
| **Monetar siyosat** | | |
| **Byudjet siyosati** | | |

**Amaliy mashg’ulotda** quyidagi interfaol o’qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Tinglovchilarning davlat moliyasi va moliyaviy siyosat bo’yicha bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish maqsadida “SWOT – tahlil” metodidan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → Zamonaviy sharoitlarda moliyaviy siyosat va uning strategik yo’nalishlari

*“SWOT - tahlil” jadvali*

| | |
|---|---|
| **S**<br>(kuchli tomoni) | **W**<br>(kuchsiz tomoni) |
| **O**<br>(imkoniyatlar) | **T**<br>(tahdidlar) |

2) Tinglovchilarning fiskal siyosat va monetar siyosat bo’yicha bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish maqsadida “**Kontseptual jadval**” metodidan foydalaniladi.

**Kontseptual jadval**

| ***Aspekt tahlili*** | Fiskal siyosat | Monetar siyosat |
|---|---|---|
| Maqsadi | | |
| Mazmuni | | |
| Instrumentlari | | |
| Shakllari | | |
| Ilgari suruvchi maktablar | | |

**3- ma’ruza mashg’ulotida** quyidagi interfaol o’qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Mashg’ulotning motivatsiya bosqichida: “Aqliy hujum”dan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → “Turli iqtisodiy maktablarning davlat moliyasi haqidagi imiy qarashlari?”

| Kllasik iqtisodiy nazariya asoschilarining ilmiiy qarashlari | Neolassik nazariya namoyondalarining ilmiy qarashlari | Keynschilik va Neokeynschilik namoyondalarining ilmiy qarashlari | Zamonaviy monetarizm namoyondalarinng ilmiy qarashlari |
|---|---|---|---|
| | | | |

2) Tinglovchilarning Marjinalizm namoyondalarining davlat moliyasiga oid ilmiy qarashlari haqida qanday ma’lumotlarni bilishlari va bilishni istayotgan ma’lumotlarini aniqlash maqsadida **“B/B/B”** metodidan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → Marjinalizm namoyondalarining davlat moliyasiga oid ilmiy qarashlari haqida qanday ma’lumotlarini birinchi ustunga yozib chiqish va bilishni istayotgan ma’lumotlarni ikkinchi ustunga yozib chiqish.

**“B /B /B”**

| **Bilaman** | **Bilishni istayman** | **Bilib oldim** |
|---|---|---|
| | | |

3) Davlatning iqtisodiy vazifasiga oid tayanch ma’lumotlarni aniqlash

maqsadida **"Tushunchalar tahlili"** metodidan foydalaniladi.

**"Tushunchalar"- tahlili**

| **Tushunchalar** | **Sizning fikringizcha ushbu tushuncha nimani anglatadi?** | **Qo'shimcha ma'lumot** |
|---|---|---|
| **Davlat** | | |
| **Davlat-iqtisodiy agent sifatida** | | |
| **Davlat-jamiyatning siyosiy instituti sifatida** | | |
| **Makroiqtisodiy arqarorlikni ta'minlash** | | |
| **Daromadlarni qayta taqsimlash** | | |

**Amaliy mashg'ulotda** quyidagi interfaol o'qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Tinglovchilarning davlat moliyasi nazariyasi haqidagi ilmiy qarashlarning kontseptual asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida "SWOT – tahlil" metodidan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → J.M.Keynsning fiskal siyosat haqidagi ilmiy qarashlarini tahlil qilish.

***"SWOT - tahlil" jadvali***

| | |
|---|---|
| **S**<br>(kuchli tomoni) | **W**<br>(kuchsiz tomoni) |
| **O**<br>(imkoniyatlar) | **T**<br>(tahdidlar) |

2) Tinglovchilarning Keynschilik va monetarizm yo'nalishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida "**Kontseptual jadval**" metodidan foydalaniladi.

**Kontseptual jadval**

| ***Aspekt tahlili*** | Keynschilik | Monetarizm |
|---|---|---|
| Kontseptual asosi | | |
| Yo'nalishi | | |
| Ilgari surilgan kontseptsiya | | |
| Shakli | | |
| Keng foydalaniladigan instrumentlar | | |

**4- ma'ruza mashg'ulotida** quyidagi interfaol o'qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Mashg'ulotning motivatsiya bosqichida: "Aqliy hujum"dan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → "Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning navbatdagi to'lqinidagi asosiy tendentsiyalar nimalardan iborat?"

| Global moliyaviy makon | Qarzga asoslangan iqtisodiyot | Byudjet taqchilligi va undagi kontseptsiya | Twin debt muammosi va uning oiibatlari |
|---|---|---|---|
| | | | |

2) Tinglovchilarning Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari muammosi haqida qanday ma'lumotlarni bilishlari va bilishni istayotgan ma'lumotlarini aniqlash maqsadida **"B /B /B"** metodidan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari muammosi haqida qanday ma'lumotlarni birinchi ustunga yozib chiqish va bilishni istayotgan ma'lumotlarni ikkinchi ustunga yozib chiqish.

**"B /B /B"**

| Bilaman | Bilishni istayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

3) Davlatning iqtisodiy vazifasiga oid tayanch ma'lumotlarni aniqlash maqsadida **"Tushunchalar tahlili"** metodidan foydalaniladi.

**"Tushunchalar"- tahlili**

| Tushunchalar | Sizning fikringizcha ushbu tushuncha nimani anglatadi? | Qo'shimcha ma'lumot |
|---|---|---|
| **Davlat qarzi** | | |
| **Tashqi qarzlar** | | |
| **Xorijdan mablag' jalb qilish** | | |
| **Byudjet taqchilligi** | | |
| **To'lov balansi** | | |

**Amaliy mashg'ulotda** quyidagi interfaol o'qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Tinglovchilarning "Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning navbatdagi

to'lqinidagi asosiy tendentsiyalar" bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida "SWOT – tahlil" metodidan foydalaniladi.

***Topshiriq mazmuni*** → AQSh davlat moliyasi tizimi.

***"SWOT - tahlil" jadvali***

| | |
|---|---|
| **S**<br>(kuchli tomoni) | **W**<br>(kuchsiz tomoni) |
| **O**<br>(imkoniyatlar) | **T**<br>(tahdidlar) |

2) Tinglovchilarning zamonaviy .

**Kontseptual jadval**

| ***Aspekt tahlili*** | AQSh moliya tizimidagi muammolar | Evropa ittifoqi moliya tizimidagi muammolar |
|---|---|---|
| Kontseptual asosi | | |
| Yo'nalishi | | |
| Ilgari surilgan kontseptsiya | | |
| Shakli | | |
| Keng foydalaniladigan instrumentlar | | |

## III. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR

### 1-mavzu: Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy roli.

**Reja:**

**1.1. Bozor va davlat: bozordagi nobarqaror vaziyatning kuzatilishi davlat aralashuvining asosi sifatida.**

**1.2. Makroiqtisodiy barqarorlik va uni ta'minlashda davlatning vazifalari.**

✍ **Tayanch iboralar:** *ijtimoiy sektor, Pareto samarasi, zamonaviy ta'lim, monopoliya, axborotlar assimetriyasi, tashqi samara, barqarorlikning birinchi teoremasi, barqarorlikning ikkinchi teoremasi,soliq yuki.*

### 1.1. Bozor va davlat: bozordagi nobarqaror vaziyatning kuzatilishi davlat aralashuvining asosi sifatida.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat jamiyatning siyosiy instituti sifatida milliy iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini doimiy tartibga solib turadi. Bunga zaruriyat shu bilan belgilanadiki, bozordagi kon'yunktura doimo ham barqaror bo'lmaydi. Turli hil omillar ta'sirida bozorda nobarqarorlik holatlari kuzatilib, bunday sharoitda davlat tomonidan tartibga solish instrumentlarining keng arsenali vositasida barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan chora tadbirlar amalga oshiriladi.

Bozordagi nobarqarorlik bu shunday vaziyatki, bozordagi erkin konyun'ktura resurslardan samarali foydalanishni ta'minlamaydi. Bozordagi nobarqarorlikning asosiy sabablaridan biri monopoliyaning mavjudligi natijasida raqobatning cheklanganligi, tabiy monopoliyalar, tashqi samara, axborotlar assimetriyasi, bozorlarning to'yinmaganligi, daromadlarning keskin tabaqalanishi va boshqa omillar hisoblanadi.

**1. Monopoliyaning mavjudligi.** Iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlaridagi tabiy monopoliyalar hamda oligopoliyalar natijasida raqobatning cheklanishiga olib kelinadi. Bunday holat ijtimoiy barqarorlik va iste'molga ta'sir ko'rsatadi. Natijada davlatning turli instrumentlar vositasida bozorga aralashuviga zarurat tug'iladi. Davlatning bozorga aralashuvi davlat va munitsipal korxonalarni tashkil etish, davlat tomonidan turli iqtisodiy instrumentlar vositasida tartibga solish, narxlarni belgilash va nazorat qilish, iqtisodiy boyliklarni xajmi, sifatini nazorat qilish kabi shaklarda amalga oshiriladi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotdagi ilmiy-texnik taraqqiyotni, texnologik jarayonlarni va innovatsion rivojlanishni dvlat tomonidan rag'batlantirish uchun "Legal monopoliya"[1] yoki intelektual mulk monopoliyasi tashkil etilishi mumkin.

**2. Axborot assimetriyasi.** Iqtisodiy boylikni ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchilar axborot assimetriyasi. Odatda, tovarlar va xizmatlarning sifat tavsiflari bo'yicha yaxshi-yomon jihatlari to'g'risida ishlab chiqaruvchilar yaxshi axborotga ega bo'lsalar, iste'molchilar bu borada to'liq axborotga ega bo'lmaydilar. Sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida axborotlar assimetriyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

[1] David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p. 161.

Shunday tarmoqlar mavjudki, axborot assimetriyasi ist'emolchilarning (sug'urtalash) yuqori darajada axborot bilan ta'minlanganliklarida namoyon bo'lib, qaysiki ko'riladigan zarar past darajada axborotga ega bo'lgan sug'urtachiga yuklanadi. Bunday xizmatlar bozoridagi nobarqarorlik davlatning aralashuvni talab qiladi (litsenziyalash), xususan, ta'lim sog'liqni saqlash, majburiy tibbiy sug'urtalashda davlat va munitsipal sektorni shakllantirishni talab qiladi.

**3. Tashqi samara.** Salbiy tashqi samara sharoitida, masalan, atrof muhitni ifloslantirish jarayonlari uchun davlat ekologiya solig'ini joriy etadi. Agar ijobiy tashqi samara bo'lsa davlat tomonidan subsidiya beriladi. Gap tashqi samara to'g'risida ketganda bozorning nobarqarorligini oldini olish uchun nafaqat regulyativ chora-tadbirlar balki, moliyaviy yoki boshqa usullardan foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyoti tizimi o'zini o'zi boshqaruvchi tizimdir. Unga juda ko'p tashqi va ichki omillar ta'sir etadi. Shunga asosan, bozorda uchraydigan nobarqarorlikni tashqi korrektsiya qilish uchun davlatning roliga ehtiyoj mavjud bo'ladi. Bundan tashqari davlat turli xil iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi tashabbuskor vazifasini bajaradi.

Davlat bir tomondan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi iqtisodiy agent. Ikkinchidan, jamiyatning siyosiy instituti sifatida siyosiy xokimiyatga egalik qiladi va jamiyatning ma'lum yo'nalishdagi rivojlanishini tartibga solib boradi.

Davlat muvaffaqiyatsizligi-bu davlat organlari tomonidan shunday qarorlar qabul qilish imkoniyatimavjud bo'lib, qaysiki, jamiyat tomonidan bunday qarorlar eng maqbul qaror sifatida qabul qilinmaydi. Davlatning provaliga quyidagilar kiritilishi mumkin:

1. Jamiyat uchun optimal qarorlarni qabul qilishdagi axbortlarning etishmasligi.
2. Iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi byurokratizm.
3. Byurokratiya ustidan etarli mukammal nazorat tizimning shakllantirilmaganligi.
4. Mukammal siyosiy tizimning shakllantirilmaganligi.
5. Davlatning boshqaruv tiziminiga motivatsiyaning etishmasligi.

Samaradorlik tushunchasi ilk bor Italyan olimi Vilfredo Pareto tomonidan tizimli ravishda o'rganilgan bo'lib, turli iqtisodiy vaziyatlar natijalarini solishtirgan. Ijtimoiy sektorning amal qilish zaruriyati iqtisodiy nazariya pozitsiyasida bozordagi barqarorlikning doimiy tavsifga ega bo'lmasligi, unda nobarqarorlik holatlarini kuzatilishi bilan bog'liqdir. Resurslarni samarali taqsimlanishi shunday holat bilan izohlanadiki, ma'lum bir individlarning iqtisodiy holatini yaxshilanishi, qandaydir boshqa individlarning iqtisodiy holatini yomonlashuvi bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Ushbu vaziyat V. Pareto(1848-1923) optimumi yoki Pareto samarasi deb nomlanadi[2]. Ushbu samaraga erishish (Pareto samarasi) bir qancha shartlar bilan bog'liq bo'lib, avvalo bozordagi nobarqarorlik holatlariga ziddir.

Pareto bo'yicha optimal holat bu shunday vaziyatki, unda bozorning barcha sub'ektlari o'zining iqtisodiy holatini boshqa individlar holatini yomonlashuviga neytral holatda amalga oshiradilar. Bunda barcha sub'ektlar foydasi bir birini kamaytirishiga neytral holatda ko'paytiradilar. Buni quyidagi rasm orqali ko'rib

[2] David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p. 36.

chiqishimiz mumkin.




**1.1-rasm. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i va ishlab chiqarishdagi samaradorlik(Pareto samaradorligi)[3].**

Rasmdan ko'rinib turibdiki, S nuqtasida ishlab chiqarish Pareto mezonlari bo'yicha samarasizdir. A,V yoki U nuqtada nisbatan samarali hisoblanadi. Chunki, ushbu nuqtalarda Y va X individ bir birining yutqazishlarisiz o'zlarining iqtisodiy holatlarini yaxshilash imkoniyatlariga ega bo'ladilar. E nuqtadan B nuqtaga ishlab chiqarish imkoniyatlarining S nuqtadan V nuqtaga surilishi Y individning ishlab chiqarish imkoniyatlarining pasaytirmagan holatda X invidning bozordagi holatlarini ko'payishiga olib keladi. S Nuqtadan E nuqtaga surilishi har qaysi invidlarning bir hilda bozordagi iqtisodiy holatlarini ortishini ta'minlaydi. S nuqtadan A nuqtaga surilishi esa bir vaqtning o'zida X individning iqtisodiy holati neytral bo'lgan holatda Y individning iqtisodiy holatini yashilanishini ta'minlaydi.

**Barqarorlikning birinchi teoremasi.** Erkin raqobat mavjud bozorlarda xech kimning iqtisodiy holati boshqa birovning iqtisodiy holati hisobiga o'smaydi.

Agar ushbu jarayon asosida Pareto bo'yicha samaradorlik chegaraviy mezonlarini ko'rib o'tmoqchi bo'lsak, quyidagi rasmga murojaat qilamiz.

[3] David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p. 38.




**1.2-rasm. Ishlabchiqarish imkoniyatlari egri chizig'i mezonlari.**

Bunda aniq ikki turdagi tovarlar ishlab chiqaruvchilar solishtiriladi. Xususan, qurol ishlab chiqaruvchilar va sariyog ishlab chiqvaruvchilar solishtiriladi. Agar A nuqtadan ishlab chiqarish imkoniyatlari V nuqtaga xarakatlanadigan bo'lsa, Sariyog' ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy holati yomonlashuvi hisobiga Qurol ishlab chiqaruvchi individ iqtisodiy holati yaxshilanadi. A nuqtadan S nuqtaga xarakatlanishida esa qurol ishlab chiqaruvchilarning imkoniyatlarining cheklanishi ya'ni ularning iqtisodiy holatini yomonlashuvi sariyog' ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy holatini yaxshilanishiga olib keladi.

Davlat birinchidan, turli xil iqtisodiy instrumentlar vositasida mamlakatdagi daromadlar va resurslarning taqsimlanishi tartibga solinadi.

**Barqarorlikning ikkinchi teoremasi**. Agar bozorda ko'plab iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar bo'lsa, ular o'zlarining manfaatlari uchun xarakat qiladilar. Ularning bozordagi xulq atvori bozor bahosiga ta'sir etmaydi. Bunda bir qancha Pareto optimalligi holatlari amal qilib, bozor usulari vositasida erishiladi.

Agar mamlakat ikkita hududdan tashkil topgan bo'lsa va ma'lum iqtisodiy ne'matga nisbatan aholining talab funktsiyasi birinchi hududda $D_1$ ni tashkil etsa, ikkinchi hududda talab funktsiyasi $D_2$ ga teng bo'ladi[4]. Agar qaror markazlashmagan holda qabul qilinsa ushbu ne'matni etkazib berishning chegaraviy xarajatlari doimiy bo'lib, R* ga teng bo'ladi. Bunda, birinchi hudud uchun ushbu boylikni etkazish $Q_1$ ga teng bo'lsa, ikkinchi hudud uchun $Q_2$ miqdorda etkaziladi.

Qarorlar markazlashtirilgan holatda qabul qilingandagi vaziyatni ko'rib chiqamiz. Bunda bir xil xarajatlar darajasida ijtimoiy boylik ya'ni ijtimoiy xizmatlar bir xil darajada etkaziladi ya'ni Q* miqdorda. Q* miqdor $Q_1$ i $Q_2$ miqdorlarning oralig'ida bo'ladi.

[4] David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p. 553.




Рис. 14.2. Преимущество децентрализованной поставки локального общественного блага
*Источник:* Якобсон Л.И. Указ. соч. С. 250

**1.3-rasm. Mahalliy ijtimoiy ne'matlarni markazlashmagan holda taqdim etishning afzalliklari.**

Rasmdan ko'rinib turibdiki, markazlashmagan holda qaror qabul qilishdan markazlashgan holda qaror qabul qilishning afzaligi shundan iboratki, bunda iste'molchilar uchun foydalilikning yo'qolishiga olib kelmoqda. Buni $E_1$ $E^*$ A i $E^*BE_2$ uchburchaklari orqali ko'rishimiz mumkin[5].

Odatda, yagar $D_1$ i $D_2$ – chiziqlar ijtimoiy ne'matlar uchun chegaraviy to'lovlar miqdorini anglatib, birinchi hudud aholisi iste'molni $Q_t$ dan Q* gacha oshirish $Q_1E_1AQ^*$, figura maydonining yuzasiga teng bo'ladi. Amalda to'lovlarning summasi $P^*(Q^*- Q_1)$ miqdorga teng bo'ladi. Bir vaqtning o'zida ikkinchi hududning aholisi uchun $Q_2$ dan Q* gacha pasayishi $Q^*BE_2Q_2$ figuraning maydoniga teng, xarajat esa $P^*(Q_2 – Q^*)$ ga ya'ni $Q^*E^*E_2Q_2$. Figura maydoniga tengdir.

**Iqtisodiy barqarorlik va uni ta'minlashda davlatning vazifalari**

Ma'lumki, makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: (a) daromadlar taqsimlanishi muammosi; (b) Iqtisodiy o'sish; (v) To'la bandlik; (g) Ichki narxlarning barqarorligi (inflyatsiya); (d) Xorijiy valyutalarga almashuv kursining barqarorligi; (j) Baquvvat to'lov balansi; (z) Davlat byudjeti kamomadining YaIMga nisbatan 3% dan oshib ketmasligi va boshqalar.

Ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish natijasida yaratilgan milliy daromad turli xil iqtisodiy sub'ektlar manfaatlari yo'lida foydalniladi. Milliy daromad, uni yaratilishida sarflarngan ijtimoiy mehnat yuzasidan yaratilgan qiymat taqsimlanadi va iqtisodiy sub'ektlarning pul daromadlari shakllantiriladi. Moddiy manfaatlarni qondirilishi yaratilgan ijtimoiy mahsulotlar taqsimlanishida o'z aksini topadi.

Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida ana shunday ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish natijasida yaratilgan milliy daromadni birlamchi va qayta taqsimlash, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar tizimidir.

Moliya- xo'jalik yuritishning barcha darajalaridagi ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. Moliyaning mavjudligisiz, kengaytirilgan asosidagi ishlab chiqarish fondlarining aylanishini ta'minlash mumkin emas. Moliya orqali YaIM yoki milliy daromadning bir qismi iqtisodiyot tarmoqlari, hududlararo

[5] Wilensky, Harold LRich Democracies: Political Economy, Public Policy, and Performance. Berkeley, Calif.: California University Press. 2002.- p.183

va  ijtimoiy sohalar o’rtasia taqsimlanadi.

Insoniyat tarixidan ma’lumki, davlatlarning paydo bo’lishi va jamiyat a’zolarining barchasiga birdek zarur bo’lgan umumiy vazifalarni davlatning zimmasiga tusha boshlashi davlatning ixtiyorida ma’lum moliyaviy mablag’lar bo’lishini talab kilgan. Kadimda davlatning boshqaruv a’zolarini ehtiyoji uchun solik to’lovlarining shakllanishi va ularni davlat ehtiyojlari uchun sarflanishi davlat moliyasining ilk ko’rinishlarini o’zida namoyon kildi. Keyinchalik, insoniyat tarakkiyoti, davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi okibatida davlat moliyasi ham shakllanib, takomillashib bordi.

Davlatlarning paydo bo’lishi bilan moliyaning paydo bo’lishini ob’ektiv shart sharoitlari davlatlar jamiyat iqtisodiy tizimidagi roli va unga tegishli bo’lgan funktsiyalarda namoyon bo’ladi.

Davlatlarning iqtisodiy roli jamiyat iqtisodiy tizimida mulkchilik munosabatlarining isloh qilish, institutsional o’zgarishlar, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy tenglik meyorlarini ta’minlashdan iboratdir.

Davlatlarning iqtisodiy vazifasi quyidagilardan iborat




**1.4-rasm. Jamiyatdagi davlatlarning iqtisodiy vazifalari[6].**

Ana shunday davlatlarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishi uchun yirik miqdordagi moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi va bunday moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish jarayoni davlat moliyasini mazmunini anglatadi.

Iqtisodiyotni moliyaviy tartibga solishda davlat byudjetidan foydalanish yo’nalishlari yoki imkoniyatlari bir paytning zid soliqlar va davlat xarajatlari orqali namoyon bo’ladi.

Buni “Resurslar-tovarlar va xizmatlar” hamda  “daromadlar – xarajatlar”ning davlat aralashuvi mavjud iqtisodiyotdagi doiraviy  aylanishi modeli orqali ko’rib chiqamiz.

Bir vaqtning o’zida korporativ sektorni (firmalar) soliqqa tortiladi va shuningdek, subsidiyalar orqali ayrim tarmoqlarda faoliyat yurituvchi xo’jalik sub’ektlarining faoliyati rag’batlatiriladi.

Shuningdek, uy xo’jaliklarini soliqqa tortish, yoki aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun ijtimoiy transfertlar ajratish vositasida uy xo’jaliklarining iste’mol talabi tartibga solib turiladi. Umuman, firmalar, uy xo’jalikari faoliyatini soliqqa tortish va ulaga subsidiyaar, ijtmoiy transfertlar ajratish hisobiga iqtisodiyotdagi yalpi talab tartibga solib turiladi.

---

[6] David N. Hyman  Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy,  Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p. 37

Davlat bir paytning o'zida tovarlar va xizmatlar yoki resurslar bozoriga tovarlar va xizmatlar hamda resurslarni taklif qiluvchi iqtisodiy agent sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, ushbu bozorlarda tovarlar va xizmatlar hamda resurslarga nisbatan talab sifatida maydonga chiqadi. Masalan, tovarlar va xizmatlarni davlat xaridi vositasida sotib olinadi. Bu borada erishilgan natijalarga to'xtalib, muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov quyidagi fikrlarni aytib o'tgan edilar, "2013 yilda elektron savdolardagi davlat xaridlari hajmi 417 milliard so'mni tashkil etdi va savdo yakunlari bo'yicha 83 milliard so'mlik byudjet mablag'lari tejab qolindi. Bunda davlat xaridlari doirasida sotuvga qo'yilgan tovar va xizmatlarning 83 foizdan ziyodi kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshirilganini alohida qayd etish kerak".




1.5-rasm. "Resurslar-tovarlar va xizmatlar" hamda "daromadlar – xarajatlar"ning davlat aralashuvi mavjud iqtisodiyotdagi doiraviy aylanishi modeli.

Davlatning iqtisodiy vazifalaridan biri jamiyatda yaratilgan daromadlarni turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida iayta taqsimlash vositasida kambag'alliq va boylar o'rtasidagi ma'lum darajadagi muvozanatni saqlash hisoblanadi. Bunda soliqlar yaratilgan daromadlarni qayta taqsimlashning muhim instrumenti hisoblanadi.

Soliq yukini ko'tarish yoki davlat xarajatlarini qisqartirish bo'yicha chora tadbirlarga ehtiyoj asosan byudjet taqchilligi yuzasidan amalga oshirilishini inobaga olib aksariyat iqtisodchilar ushbu chora tadbirlarni aksariyat holatlarda uy xo'jaliklarining yalpi talabi va korporativ sektordagi yalpi taklifga ta'siri bilan bog'laydilar. Masalan, Xorijlik iqtisodchilar R.Barro va D. Rikardolar soliqlarni oshirish yoki byudjet taqchilligini qarzli moliyalashtirishdan kutiladigan oqibatni bir hil baholaydilar[7].

Soliq yukining pasayishi byudjetga undirilishi lozim bo'lgan daromadlarni qisqarishiga olib keladi. Bunday sharoitda byudjetda taqchillik vujudga kelishi

[7]Levine, Ross. Finance and Growth: Theory and Evidence. NBER Working Paper 10766. Cambridge, Mass.: National Bureau of Economic Research, 2004, p. 85.

mumkin. Buning matematik ifodasini quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

$G_1 - T_1 = BD = \Delta B$. (1.1)

Bu erda,

$G_1$- birinchi davrdagi davlat byudjeti xarajatlari;

$T_1$ – birinchi davrdagi soliqlar

$BD = \Delta B$- byudjet taqchiligi.

Keyigi bosqichda davlat byudjet taqchilligini qoplash uchun soliqlarni ko'paytiradi va $r\Delta B$ xajmdagi taqchillikni qoplaydi.

$T_2 = G_2 + (G_1 - T_1)(1+r)$. (1.2)

Bu erda,

$T_2$ –keyingi davrdagi soliq tushumlari;

$G_2$- keyingi davrdagi davlat byudjeti xarajatlari

Agar kelgusi soliq tushumlarining joriy qiymati kelgusi davlat byudjeti xarajatlarining joriy qiymatiga teng bo'ladigan bo'lsa, yuqoridagi tenglmani quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi.

$$T_1 + \frac{T_2}{1+r} = G_1 + \frac{G_2}{1+r}$$

Iqtisodchilar tomonidan ko'tarilgan ushbu masaada, individlarning soliqlarni qisqarishiga ta'siri o'rganilgan.

Yuqoridagi holatlar tasdiqlaydiki, soliqlarning qisqarishi individlarni iste'mol xarajatlarini kengayishiga ta'sir etmaydi. Soliqlarning qisqarishi hisobiga hosil bo'ladigan taqchillikni davlat boshqa manbalar hisobiga qoplaydi. R.Barro tomonidan rivojlantirigan ushbu nazariyada ko'zda tutiladiki, iqtisodiy sub'ektlarda ratsional kutish odatda va har qanday taqchillik kelgusidagi nisbatan yuqori soliqlar hisobiga koplanishi muqarrarigi e'tirof etiladi.

Soliqlarni o'zgartirish bilan bog'liq davlat tadbirlariga soliq to'lovchi individlar reaktsiyasi bo'yicha yana bir, gipotezani ko'rib chiqamiz.

Irving Fisher bu boradagi tadqiqotlarni amalga oshirib, vaqtlararo tanlov modelini ishlab chiqqan. Ushbu modelning grafik tuzilishi quyidagi rasmda ifodalanadi.

Mantiqan shunday xulosa qilsa bo'ladiki, jami iste'mol darajasi har bir individning ixtiyordagi daromadga teng bo'ladi. Buni quyidagicha matematek ifodalash mumkin:

$$C_1 + \frac{C_2}{1+r} = (Y_1 - T_1) + \frac{Y_2 - T_2}{1+r}. \quad (1.4)$$

Bu erda,

$C$-istemol ko'rsatkichi;

$Y$- jami daromad;

$r$- kelgusi pul oqimlarini joriy qiymatini hisoblash uchun muqobil foiz normasi;

Soliqlarning pasaytirilishi iste'molchining o'ziga xos ravishdagi talovini o'zgartirmaydi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin.

$$C_1 + \frac{C_2}{1+r} = (Y_1 - T_1 + \Delta T) + \frac{Y_2 - T_2 - (1+r)\Delta T}{1+r} =$$

$$C_1 + \frac{C_2}{1+r} = Y_1 - T_1 + \Delta T + \frac{Y_2 - T_2}{1+r} - \Delta T = C_1 + \frac{C_2}{1+r} = (Y_1 - T_1) + \frac{Y_2 - T_2}{1+r} . \qquad (1.5)$$




**1.3-rasm. Irving Fisher vaqtlararo tanlov modeli**[8]

Demak, joriy davrda soliq yukini pasaytirish natijasida soliq to'lovchilar zimmasidagi, soliqlarni pasaytirish iste'molning o'sishiga ta'sir etmaydi. Balki, sof boylikning o'sishi orqali jamg'arishning ortishiga olib keladi.

Ma'lumki, davlat moliyasi instrumentlari vositasida moddiy ne'matlar yaratilaigan sohalardagi daromadlar, ijtimoiy sohalarga qayta taqsimlanadi. Bunda soliqlar, asosiy qayta taqsimlash instrumnti hisoblanadi. Natijada, yaratilgan aromadni aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida taqsimlanishi tenglashtirilishi mumkin. Lekin bunday taqsimlanishi teng miqdorda bo'lmaydi va taqsimlash egri chizig'i bissektrisa shaklida bo'lmaydi. Ushbu g'oyani italyan olimi Jini grafik tarzida quyidagicha ifodalaydi.

[8]Alan J. Auerbach Public Finance in Practice and Theory.-University of California, Berkeley, May, 2009, p.104




**1.4-rasm. Daromadlar taqsimlanishi (Jini grafigi)**

***Jini koeffitsienti yordamida baholanadi va u* 0 ≤KJ ≤1 *oraliqda bo'ladi.***

1. Jini koeffitsienti 0 ga teng bo'lganda daromadlar aholi orasida teppa-teng taqsimlanadi.

2.Jini koeffitsienti 1 ga teng bo'lganda barcha daromadlar bitta shaxs tasarrufida bo'ladi.

Bu holatlar gipotetik holatlar bo'lib, faqat nazariyadagina mavjud.

## Nazorat savollari:

1. Bozordagi nobarqaror vaziyatning kuzatilishi davlat aralashuvining asosi nimalardan iborat?
2. V.Paretoning samarasi nimalardan iborat?
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlashda davlatning ahamiyati va zarurligini qanday izohlaysiz?
5. Iqtisodiy barqarorlik va uni ta'minlashda davlatning vazifalarini izohlang.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

## Maxsus adabiyotlar

1. David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, 2011 South-Western Cengage Learning Mason, OH, USA

2. Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma.- T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009.-6-20 b.

3. Brunori, David, *Local Tax Policy*, 2nd edition, Washington, D.C.: The Urban Institute Press, 2007. A discussion of local government revenue systems in the United States within the context of the problems faced by these governments and the federal system.

4. Brunori, David. *State Tax Policy*. Washington, D.C.: The Urban Institute Press, 2001. An analysis of state tax systems within the context of a federal system where the central government is shifting more responsibility to the states.

5. Steuerle, C. Eugene, Van Doorn Ooms, George Peterson, and Robert D. Reischauer. *Vouchers and the Provision of Public Services*. Washington, D.C.: The Urban Institute Press, 2000. An analysis of how vouchers are used to finance public services, including education and housing, in the United States and other nations.

6. Alan J. Auerbach Public Finance in Practice and Theory. University of California, Berkeley May 2009.

**Internet resurslari**

http://www.nasbo.org
http://www.ntanet.org

## 2-mavzu: Davlat moliyasining mohiyati va zamonaviy sharoitlarda undagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari.

**Reja:**

**2.1. Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati**.

**2.2. Davlat moliyasining bo'g'inlari**.

**2.3. Moliyaviy siyosat va zamonaviy sharoitlarda uning ustuvor yo'nalishlari**.

✍ **Tayanch iboralar:** *Moliya, davlat moliyasi, moliya tizimi, moliyaviy siyosat, klassik tavsifdagi moliyaviy siyosat, tartibga soluvchi tavsifdagi moliyaviy syosat, fiskal siyosat, diskretsion fiskal siyosat, nodiskretsion fiskal siyosat, byudjet siyosati.*

### 2.1. Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.

Davlat moliyasi davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funktsiyalarini bajarishi uchun zaruriy pul mablag'lari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan mamlakatning moliya tizimini muhim bo'g'inidir. O'zinig iqtisodiy mohiyatiga ko'ra davlat moliyasi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonida davlat ixtiyorida pul fondlarini shakllantirish va mazkur davlatning pul fondlaridan kengaytrilgan takror ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha davlat ehtiyojlari, jamiyat a'zolarining o'sib borayotgan ijtimoiy madaniy ehtiyojlarini qondirishga, mudofaa va boshqarish sohalarini moliyaviy ta'minlash bo'yicha ehtiyojlarni qondirishga taqsimlash bilan bog'liq makroiqtisodiy munosabatlar tizimidir. Davlat moliyasining o'ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qatnashuvchi sub'ekt sifatida davlatning o'zi maydonga chiqadi. Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati turli tuman talqin qilinadigan bo'lib, uning tarkibida alohida o'zaro bog'liq bo'g'inlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos vazifalarni

bajaradi.

Davlat moliyasi davlatning umumiy daromadlarini shakllantirish va davlat xarajatlari yo'nalishi o'z ichiga oluvchi qiymat taqsimot munosabatlarini o'zida aks ettiradi[9].

Davlat moliyasi jamiyat a'zolari umumiy ehtiyojini qondirish, mamlakatni idora etish uchun taqsimlash va ishlatish borasidagi munosabatlar yig'indisidir. Mamlakatning ijgimoiy-iqgisodiy rivojlanishida moliya va moliyaviy siyosatning ahamiyati kattadir. Moliya siyosati iqgisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lib, moliyani tashkil etish hamda undan foydalanish davlat o'z funktsiya va vazifalari amalga oshirishda ko'radigan choralari majmuiga kiradi.

Davlat moliyasi moliya tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etadi. Davlat moliyasi milliy daromad va milliy boylik qiymatining bir qismini davlat, unga qarashli korxona, tashkilotlarning pul fondiga aylantirib, ularning iqtisodiy o'sishini ta'minlash, jamiyat a'zolari umumiy ehtiyojlarini qondirish, mamlakatni boshqarish uchun taqsimlash va ishlatish munosabatlarini oladi.

Davlatning moliyaviy faoliyati — davlat zimmasidagi funktsiyalarni bajariliishni ta'minlash uchun pul mablag'larini to'plash, taqsimlash, qayta taqsimlash sohasidagi tadbirlardan iborat. Moliyaviy faoliyat milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash yo'li bilan shaxsiy ehtiyojlarnigina emas, shu bilan birga ijtimoiy ehtiyojlarni ham qondirish zarurligi yuzasidan ob'ekgiv jarayondir. Ishlab chiqarish jarayonida korxona, tashkilot va fuqarolarda muayyan pul jamg'armalari vujudga keladi va moliyaviy faoliyat natijasida ushbu jamg'armalarning muayyan qismi ijtimoiy ehgiyojlarni qondirish uchun umumdavlat jamg'armlariga jalb etiladi.

**Davlat moliyasi-** kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan milliy daromadni taqsimlanishi orqali davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari tizimini o'z ichiga oladi.

Markazlashtirilgan pul fondlari davlatning jamiyatni siyosiy instituti sifatidagi faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etuvchi fondlardir. Ushbu pul fondlari asosan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobiga shakllantiriladi.

Davlat moliyasining mohiyati va uning roli hamda maqsadlari davlatlarni bajaradigan funktsiyalari, ishlab chiqarish usullari, ishlab chiqarish munosabatlari harakteri bilan belgilanadi.

Davlat moliyasi orqali milliy daromad hududlar, tarmoqlar va aholining turli ijtimoiy qatlamlari o'rtasida qayta taqsimlanadi.

## 2.2.Davlat moliyasining bo'g'inlari.

Agar mamlakat miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish darajasiga asoslangan holda davlat moliyasini guruhlanishida davlatlarning siyosiy tuzilishi va davlat boshqaruvi asosiy omil hisoblanadi. Chunonchi, mamlakatlarning siyosiy tuzilishi va boshqaruv tuzilmasi nuqtai nazaridan federativ, konfederativ va

---

[9] David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p.42.

unitar kabi turlarga ajratishimiz mumkin.

Anglo-amerika maktabi iqtisodchi olimlarining ta'kidlashicha, Federativ mamlakatlarda davlat moliyasi ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan boshqarish darajasi nuqtai nazaridan 3 asosiy bo'g'inga: Federal moliya, federatsiya sub'ektlari moliyasi va mahalliy moliyaga bo'linishini ta'kidlaydi[10].

Unitar mamlakatlarda yahlit davlat boshqaruvi tizimi shakllantirilgan bo'lib Davlat moliyasi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat boshqaruv darajasi nuqtai nazaridan 2 turga ya'ni markaziy moliya va mahalliy moliyaga bo'linadi. O'zbekiston respublikasi davlat moliyasi yuqorida aytib o'tilgan sifat bulgilariga ko'ra ham 2 turga ya'ni markaziy moliya va mahalliy moliyaga bo'linadi. Markaziy moliya respublika byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, davlat krediti va markaziy xukumat ixtiyoridagi davlat korxonalari moliyasini uz ichiga oladi. Mahalliy moliyaning markaziy bo'g'inini mahalliy byudjetlar tashkil qiladi. Mahalliy byudjetlar mahalliy xokimiyat organlarinig boshqaruv vakolatlari darajasida ehtiyoj sezuvchi markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni jalb qilish bilan bog'liq imperativ pul munosabatlari tizimi hisoblanadi.

Davlat moliyasi moliya tizimining tarkibiy elementi hisoblanadi. Davlat moliyasi markazlashtirilgan pul fondlarini shakantirish va undan foydalanish jarayonlarini qamrab olib, ushbu pul fondlari asosan davlatning byudjet va byudjetdan tashqar jamg'armalaridan tashkil topadi.

Iqtisodiy sub'ektlarning daromadlarini shakllanish usullariga bog'liq ravishda moliya tizimini markazlashtirilgan moliya(davlat moliyasi) va markazlashtirilmagan moliya kabi 2 asosiy turga ajratish qabul qilingan.




**2.1-rasm. Moliya tizimining tashkiliy tuzilmasi**

[10] Alan J. Auerbach Public Finance in Practice and Theory.-University of California, Berkeley, May 2009, p.86

Moliya tizimi pul munosabatlari tizimini tashkil qilish shakli sifatida moliyaviy resurslarni shakllantirish va foydalanishni ta'minlovchi 3 asosiy o'zaro bog'liq tizimlarga bo'linadi: Davlat va mahalliy boshqaruv organlarining moliyasi, xo'jalik sub'ektlari moliyasi, uy xo'jaliklari moliyasi.

Yahlit moliya tizimini tashkil qiluvchi mazkur tizimlar ham iqtisodiy sub'ektlarning aniq pul mablag'lari fondini tashkil qilinishiga qarab o'z navbatida alohida bo'g'inlarga ajratiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki moliya tizimining bo'g'inlari mamlakat miqyosida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini shakllantirish bilan bog'liqdir.

Markazlashtirilgan moliyaning tarkibida davlat moliyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat moliyasi xo'jalik sub'ektlari moliyasi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki byudjet daromadlarini asosiy manbalaridan biri ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida yaratiladigan milliy daromad hisoblanadi.

Davlat byudjeti davlat moliyasini asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Chunki davlat byudjeti orqali YaIMning taxminan 20-25%i qayta taqsimlanadi. Davlat byudjet orqali yirik miqdordagi pul resurslariga ega bo'ladi. Bunday pul resurslari orqali davlat o'zining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa vazifalarini amalga oshiradi. Chunonchi, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda byudjet asosiy rol o'ynaydi. Hozirgi sharoitda umumiy byudjet xarajatlarining taxminan 60%i atrofida ijtimoiy-madaniy tadbirlarga yo'naltirilmoqda.

Byudjet munosabatlari yordamida moliyaviy usulda qayta taqsimlash natijasida milliy daromadning sezilarli qismi jamlanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, markaziy va mahalliy xokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy bazasi davlat byudjeti hisoblanadi.

Byudjet iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki uning moddiy asosini ijtimoiy ishlab chiqarish natijasida olinadigan pul daromadlari hisoblanadi. Shuning uchun ham har kanday mamlakatda byudjet munosabatlarini tashkil qilish jarayonida ishlab chiqarish manfaatlari hisobga olinishi lozim.

Byudjet vositasida davlat iqtisodiyotga faol ta'sir qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Chunki byudjet vositasida iqtisodiyotning yirik miqdordagi pul resurslari tarmoqlar va hududlar o'rtasida qayta taqsimlanadi. Demak, byudjet daromadlarini shakllantirish va ulardan ijtimoiy ehtiyojlar uchun foydalanish jarayonida davlatning barcha tarmoq va sohalaridagi pul daromadlari va jamgarmalarni tartibga soladi, mamlakatlarning turli hududlaridagi iqtisodiy potentsial, investitsion faollikni va barkaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bog'liq hududiy muammolarni xal qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Demak, byudjetning iqtisodiy mohiyati nuqtai nazaridan mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib o'tiladigan bulsa, davlatning moliyaviy asosini konuniy o'rnatilishi nuqtai nazaridan esa byudjet davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida ko'rib chiqiladi.

O'zining jamiyat tarakkiyotidagi ijtimoiy iqtisodiy funktsiyalariga asoslangan holda byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlar davlat moliyasida muhim ahamiyatga egadir.

Davlatning byudjetdan tashqari fondlari asosan ijtimoiy muammolarni xal qilish maqsadida markazlashtirilgan shaklda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan pul daromadlarini bir qismini ijtimoiy ehtiyojlar yo'nalishida foydalanish uchun qayta taqsimlash jarayonida shallantiriladigan pul fondidir.

Hozirgi sharoitda mavjud byudjetdan tashqari fondlar uzlarining shakllanish maqsadlari yo'nalishida 2 asosiy guruhga ajratiladi:

Byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlar;

Maxsus maqsadli moliyaviy fondlar.

Byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlar davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda muhim moliyaviy manba rolini o'ynaydi. Bunday siyosat sifatida kam ta'minlangan oilalarga nafakalar berish, kariyalar uchun pensiya tizimini shallantirish, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam berish, mamlakat miqyosidagi ishsizlikni oldini olish, mehnat resurslari hududlar o'rtasida migratsiyasini kushimcha ishchi urinlarini yaratish hisobiga barkarorlashtiri kabi ijtimoiy manfaatlarni hisobga olgan holda tashkil qilingan.

Byudjetdan tashqari fondlar- aholining alohida ijtimoiy guruhlari foydasiga milliy daromadni qayta taqsimlash usulidir. Davlat o'zining ijtimoiy funktsiyasini amalga oshirishda byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlardan faol foydalanadi. Davlat moliyasini muhim bo'g'ini sifatida byudjetdan tashqari fondlarni shakllanishi davlatning yagona markaziy fondi byudjetni shakllanishi bilan maxsus fondlar shaklida paydo bo'lgan.

Davlat byudjetidan avtonom ravishda faoliyat yurituvchi mazkur fondlar davlat tomonidan aloxida e'tibor talab qiluvchi aloxida muhim vazifalarni echishga karatilgan. Aynan anik maqsadli foydalagnishdagi byudjetdan tashqari fondlarni shakllanishi samarali davlat moliyaviy nazorat tizimlarini ta'minlaydi.

Byudjetdan tashqari fondlarning aktiv saldolari sharoitida davlat byudjeti taqchilligini kredit mexanizmi orqali moliyalashtirish manbalariga ega bo'linadi.

Davlat moliyasining muhim bo'g'inlaridan biri davlat krediti munosabatlari bo'lib davlat krediti- korxona, tashkilot, axoli va boshqa davlatlarning vaktinchalik bush pul mablag'larini davlat xapraatlarini moliyalashtirish uchun jalb qilish bilan bog'liq pul munosabatlaridir. Davlat kreditining davlat moliyasini muhim bo'g'ini sifatida kurilishiga asos davlat krediti munosabatlari vositasida yirik miqdordagi pul mablag'lari davlat manfaatlari uchun yoki davlat tadbirlarini moliyalashtirish uchun zaruriy moliyaviy resurslarni shakllantirish bilan bog'liq munosabatlarligi hisoblanadi.

## 2.3. Moliyaviy siyosat va zamonaviy sharoitlarda uning ustuvor yo'nalishlari.

Davlat o'zining boshqaruvchilik faoliyatini amalga oshirish uchun ma'lum yo'nalishdagi siyosatni amalga oshiradi. «Siyosat» – yunoncha «Politika» so'zining o'zbekchadagi tarjimasi bo'lib, uning ma'nosi «davlatni boshqarish san'ati» demakdir[11].

[11] Alan J. Auerbach Public Finance in Practice and Theory.-University of California, Berkeley, May 2009, p. 148

Qadimgi yunon faylasufi Demokritning fikricha, «siyosat» – davlatni idora etish, boshqarish mahoratidir. Platonning fikricha, siyosat-hukmdorning davlatni boshqarish san'atidir, ya'ni podshohning odamlarni boshqarish sohasidagi bilim va qobiliyatidir- deb ta'riflaydi.

Davlatning bir butun amalga oshirayotgan siyosatida ijtimoiy manfaatlar o'zining aksini topadi. Ayniqsa, taniqli Iqtisodchi J.M.Keynsning fikri bilan aytganda bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy manfaatlar faqatgina davlatlarda o'z aksini topadi.

G'arb siyosatshunosligida keng tarqalgan fikrlarga ko'ra, siyosat – jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini o'zaro uyg'unlashtirish asosida qaror qabul qila olish qobiliyatidir.

Siyosat–turli ijtimoiy guruhlarning davlat xokimiyatiga munosabatlarining ifodasidir.

Davlatning siyosiy faoliyati ijtimoiy hayotning barcha sohalarida va shuningdek, moliyaviy sohada xam namoyon bo'ladi.

Davlat har qanday o'zining vazifalari bo'yicha aniq maqsadlarga erishish uchun moliyadan foydalanadi. O'rnatilgan maqsadlarni amalga oshirishda moliyaviy siyosat muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy siyosatni ishlab chiqish va uni amalda qo'llash jarayonida o'rnatilgan vazifalarni amalga oshirish shart sharoitlari ta'minlanadi. Ular iqtisodiy manfaatga ta'sir qilishning faol quroli sifatida ishtirok etadi. Moliyaviy siyosat ko'p qirralidir. U quyidagi muhim bo'g'inlarni o'z ichiga oladi:

Moliyaning rivojlanishini ilmiy asoslangan kontseptsiyalarini ishlab chiqish. U asosan iqtisodiy qonunlar talablarini o'rganish, xo'jalikning rivojlanish holatini har tomonlanma kompleks tahlil qilish, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini, aholi ehtiyojlarini rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Istiqboldagi va joriy davrda moliyadan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash. Bunda xalqaro omillar, moliyaviy resurslarni o'sish imkoniyatlarini hisobga olingan holdagi iqtisodiy siyosatda ko'zda tutiluvchi o'rnatilgan maqsadlarga erishish yo'llaridan kelib chiqadi.

Amaliy faoliyatlarni muvofiqlashtirish. Bunda o'rnatilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatlarni tashkiliy asoslari ko'zda tutiladi.

Yuqoridagi 3 bo'g'inlarning yahlitligi moliyaviy siyosatni mazmunini aniqlab beradi. istiqbolsiz moliyaviy siyosat moliyaning rivojlanishini asosiy kontseptsiyalarini to'laqonli ravishda mukammalashtirmaslik oqibatlari hisoblanadi.

Davlatning moliya siyosati bilan jamiyatni iqtisodiy faoliyati o'rtasida muhim o'zaro bog'liqlik mavjud.

Bir tomondan, moliyaviy siyosat iqtisodiy munosabatlar mahsuli bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda erkin emas, ya'ni moliyaviy siyosat mamlakat iqtisodiyotiga bevosita bog'liqdir.

Ikkinchi tomondan, moliyaviy siyosat mamlakatning iqtisodiy bazisidan kelib chiqqan va rivojlangan holda ma'lum bir mustaqillikka ega, hamda o'ziga xos qonuniyatlar va rivojlanish mantig'iga ega.

Ushbularga asoslangan holda moliyaviy siyosat davlat iqtisodiyotiga va moliyaviy holatiga teskari ta'sir etadi. Bu ta'sir turlicha bo'lishi mumkin.

Ba'zi hollarda siyosiy chora tadbirlar o'tkazish vositasida iqtisodiyotni rivojlanishi uchun qulay shart sharoitlar va imkoniyatlar yaratiladi.

Ba'zi hollarda siyosiy chora tadbirlar o'tkazish vositasida iqtisodiyotni orqaga ketishi uchun shart sharoitlar vujudga keltirishi mumkin.

Moliyaviy siyosat – bu moliyaviy resurslarni jamlash, ularni davlatning o'z funktsiya va vazifalarini amalga oshirish uchun taqsimlash va ishlatish shakl hamda usullarida tizimli namoyon bo'luvchi tadbirlar yig'indisidir.

Moliyaviy siyosatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: (a) Byudjet-soliq siyosati; (b) pul-kredit siyosati; (v) institutsional islohotlar; (g) investitsiya siyosati va boshqalar.

Moliyaviy siyosat – bu moliyaviy resurslarni jamlash, ularni davlatning o'z funktsiya va vazifalarini amalga oshirish uchun taqsimlash va ishlatish shakl hamda usullarida tizimli namoyon bo'luvchi tadbirlar yig'indisidir.

Moliyaviy siyosat – bu davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy resurslarni (manbalarni) jalb etish, ularni taqsimlash, ishga solish va foydalanishga davlat orqali yo'naltirilgan barcha chora-tadbirlar yig'indisidir.

Moliya - iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki, uning moddiy asosini takror ishlab chiqarish jarayonidagi pul aylanishi tashkil qiladi. Shuning uchun ham har qanday moliyaviy siyosat amalga oshirishidan qat'iy nazar ishlab chiqarish manfaatlari, uning uzluksiz davom etish qonuniyatlarini buzmasligi lozim.

Moliyaviy siyosatning muhim vazifasi – u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasini yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Bu siyosat iqtisodiy siyosatga bog'liq ammo bu moliyaviy munosabatlar sohasida davlatning mustaqil faoliyat ko'rsatadigan sohasi. Moliya siyosati mustaqil xususiyatga ega bo'lish bilan bir vaqtda davlat siyosatini har qanday istalgan ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish uchun hoh ijtimoiy, hoh iqtisodiy, yoki xalqaro munosabatlar doirasida muhim vositadir.

Moliyaviy siyosat quyidagi muhim bo'g'inlarni o'z ichiga oladi:

a) moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan kontseptsiyalarini ishlab chiqish.

b) istiqbolda va joriy davr mobaynida moliyadan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish.

v) qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy hatti-harakatlar, chora-tadbirlar ko'rish.

Hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarning xarakteriga, murakkabligiga va davrini uzoqligiga qarab, moliyaviy siyosat:

1. Moliyaviy strategiya.
2. Moliyaviy taktikaga bo'linadi.

Moliyaviy strategiya – ijtimoiy va iqtisodiy strategiyani belgilab bergan uzoq istiqbolga muljallangan va yirik masshtabdagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lib, u moliya rivojlanishining asosiy kontseptsiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy munosabatlarni tashkil etish tamoyillarini belgilashni ko'zda tutadi[12].

---

[12] David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p.245

Moliyaviy taktika – strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining konkret bosqichida moliyaviy munosabatarni tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi.

Davlatning moliyaviy  siyosati makroiqtisodiy siyosatning bosh elementlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi sharoitda O’zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan moliyaviy siyosat islohotlarning o’tish davridagi moliyaviy iqtisodiy inqirozlar oqibatlarini tugatish va mamlakatdagi barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashga yo’naltirilgandir.

Amalga oshiriladigan iqtisodiy siyosat yoki moliyavis ysiyosat instrumentlaridan darajada miliy iqtisodiyotni tartibga solishda foydalanish ko’lamiga qarab, hozirgacha dunyoning turli mamlakatlarida olib borilgan moliyaiy siyosatning 3 asosiy turi ajratiladi.

Klassik tavsifdagi moliyaviy siyosat davlatning iqtisodiyotga aralashuvi cheklangan sharoitda, iqtisodiyotning bozor qonuniyatlariga asoslangan holdagi taraqiyotini ta’minlovchi va davlatning jmiyatni siyosiy instituti sifatidagi faoliyati imkon darajasida cheklanuvchi iqtisodiy tizim sharoitidagi olib boriladigan moliyaviy siyosat hisoblanadi. Klassik tavsifdagi moliyaviy siyosatning bosh doktrinasi Klassik siyosiy iqtisodchi olimlarniing g’oyalari hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy sharoitlardagi Monetarizm, Liberalizm yoki Neoliberalizm g’oyalari asosidagi moliyaviy siyosat ham klassik tavsifdagi moliyaviy siyosat turkumiga kiritish mumkin.

Tartibga soluvchi moliyaviy siyosat sharoitida davlatniing makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati ustuvor ahamiyat kas etadi. Bunda fiskal instrumentlardan faol foydalaniladi. Ushbu turdagi moliyaviy siyosatda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi yuqori darajada bo’lib, bunda fiskal instrumentlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu siyosatning bosh doktrinasi sifatida J.M.Keyns yoki keyinchalik, Neokeynschilik nazariyalarini keltirishimiz mumkin.




**2.2-rasm. Moliyaviy siyosatning turlari**

Rejali-direktiv tarzdagi moliyaviy siyosat davlatning milliy iqtisodiyotdagi mutlaq xukmro roli mavjud bo’lgan sharoitda amalga oshiriladigan moliyaviy siyosatni tushunish mumkin.

Moliyaviy  siyosat quyidagi yo’nalishlarni o’z ichiga oladi:

byudjet-soliq siyosati;
pul-kredit siyosati;
instituttsional islohotlar;
investitsiya siyosati.

**Byudjet-soliq (Fiskal) siyosati-** to'liq bandlik va YaIMni noinflyatsion ishlab chiqarilishini ta'minlashga yo'natirilgan, davlat xarajatlari va soliqlarni o'zgartirish bo'yicha xukumat tadbirlari majmuasidir.

Fiskal siyosatni amalga oshirish va undagi instrumentlardan foydalanish iqtisodiyotning qay holatdaligiga bevosita bog'liqdir. Iqtisodiy tsiklar deb nomlanuvchi milliy iqtisodiyotning ma'lum davriy holatlarida olib boriladigan fiskal siyosat o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha tavsiflanadi. Buni quyidagi rasmdan ko'rishimiz mumkin.

**Diskretsion fiskal siyosatda** pasayish davrida yalpi talabni ragbatlantirish maksadida davlat xarajatlarini kupaytirilishi yoki soliqlarni kamaytirish orkali byudjet taqchilligi kelib chikadi.

**Nodiskretsion fiskal siyosat** tsiklik o'sish fazasida avtomatik ravishda byudjetga sof soliq tushumlarini ko'paytirishni ko'zda tutadi[13].

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'linadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi.

Bizga ma'lumki, davlat tomonidan olib boriladigan iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'milash hisoblanadi.

[13] Alan J. Auerbach Public Finance in Practice and Theory.-University of California, Berkeley, May 2009, p.212




**2.3-rasm. Iqtisodiyotning tsiklli rivojlanishida fiskal siyosat instrumentlaridan foydalanish.**

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning o'zi keng va kompleks tushuncha bo'lib, Iqtisodchi A.Nabixo'jaevning fikricha, makroiqtisodiy barqarorlik tom ma'noda, izchil iqtisodiy o'sish sur'atlari, mo'tadil darajadagi ishsizlik, baquvvat to'lov balansi, me'yordagi infltsiya, mo'tadil darajadagi byudjet taqchilligi yoki profitsit kabi ko'rsatkichlar orqali ham ifdalash mumkin.

Hozirgi sharoitda respubikamizda olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida erishilayotgan makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanayot-ganligiga qarmasdan, ushbu sohada hal qilinishi lozim bo'lgan ayrim masalalar mavjudki, ushbu muammolar o'z navbatida Respublikamizda makroiqtisodiy barqarorlashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar bo'yicha yangi vazifalarni belgilab beradi. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Islom kaimov quyidagi fikrlarni aytib o'tga edilar, " Iqtisodiyotimizning 2014 yilga mo'ljallangan asosiy vazifa va ustuvor yo'nalishlari avvalo bu sohaning yuqori sur'atlar bilan o'sib borishini ta'minlash, buning uchun mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirishga qaratilgan".

**Ushbu islohotlarni amalga oshirish, makroiqtisodiy siyosatining asosiy tarkibiy eementi hisoblangan byudjet-soliq siyosatini ham yanada chuqurlashtirishni talab qiladi.**

Byudjet-soliq siyosatining iqtisodiy mazmuniga doir turli xil qarashlarni tahlil qilish, aniq iqtisodiy - ijtimoiy tizimlar sharoitidagi va amal qilish xususiyatlarini hamda davlatning iqtisodiyotga samarali ta'sir qilish dastak-laridan ekanligini asoslash va milliy iqtisodiyotning muvozanatligini ta'minlashdagi ustuvor yo'nalishlarini, aniq iqtisodiy tamoyillarini belgilash zarurdir.

**Бюджет-солиқ сиёсати**

| **Рағбатлантирувчи** (экспансион) | **Чегараловчи** (рестрикцион) |
|---|---|
| Давлат харажатларини ошириш ёки солиқларни камайтириш ҳисобига иқтисодиётнинг даврий тушишини бартараф этишга йўналтирилган | Давлат харажатларини қисқартириш ёки солиқларни ошириш ҳисобига инфляция даражасини пасайтириш ва иқтисодиётнинг даврий кўтарилишини чегаралашга йўналтирилган |

| **Оқибатлар** | | | |
|---|---|---|---|
| ***ижобий*** | ***салбий*** | ***ижобий*** | ***салбий*** |
| Қисқа муддатда даврий тушишни бартараф этиш; узоқ муддатда иқтисодий ўсиш. | Бюджет камомади, корхонага солиқ юки ортиши, инфляция ўсиши. | Бюджет камомади, корхонага солиқ юки ва талаб инфляциясининг пасайиши. | Яқин истиқболда ишсизликнинг ўсиши, ишлаб чиқаришнинг сусайиши; узоқ истиқболда стагфляция хавфи |

**2.4-rasm. Byudjet-soliq siyosati va uning turlari[14]**

Chunki, davlat paydo bo’lishi bilan byudjet-soliq siyosati jamiyatdagi turli xil iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning zaruriy tarkibiy qismlaridan va jamiyat rivojlanishi ob’ektiv ravishda taqozo qiladigan talablaridan biri bo’lib kelgan. Davlat tuzilishi shakllariga va jamiyatning shu jumladan moliyaviy siyosat dastaklari o’zgarib to’htovsiz takomillashib borgan.

Iqtisodiy o’sish maqsadlaridan kelib chiqib[15], byudjet-soliq siyosati bandlik darajasini va shu orqali YaMM real hajmini oshirishga yo’naltiriladi. Bunda rag’batlantiruvchi fiskal siyosat dastaklari bo’lib:

- davlat xarajatlarining o’sishi;
- soliq stavkalarining pasayishi hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda davlat byudjet barqarorligini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy siyosat iqtisodiy inqiroz yoki turg’unlik davrida budjet taqchilligini bartaraf etish maqsadlariga qaratilishi zarur.

**Byudjet siyosati -** davlat xokimiyati organlari tomonidan o’tkaziladigan tadbirlar va harakatlar yig’indisi bo’lib, u:

- byudjet tizimini boshqarishda va ularni o’z vazifalarini bajarishlari uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanishlari bo’yicha moliya byudjet sohasidagi maqsad va vazifalarni aniqlashni ko’zda tutadi[16];
- byudjet tizimini boshqarishda va ularni o’z vazifalarini bajarishlari uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanishlari bo’yicha moliya byudjet sohasidagi

[14] Alan J. Auerbach Public Finance in Practice and Theory.-University of California, Berkeley, May 2009, p. 112
[15] David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p.61
[16] David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p.160

maqsad va vazifalarni aniqlashni ko'zda tutadi;

- byudjet tizimida moliya byudjet instrumentlari yordamida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarini tartibga solishni tashqil etadi.

Agar davlat o'zining fiskal va xarajatlar siyosatidan foydalanib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini bir me'yorda ushlab turishga va narxlarning barqarorligini ta'minlashga intilsa, bunda u iqtisodiyotda barqarorlashtirish siyosatini olib borishga intilayotgan bo'ladi. Bunda baqarorlashtirish siyosatiga davlatning iqtisodiy jarayonlarini rag'batlantirish yoki ushlab turishga qaratilgan moliyaviy siyosat, deb qarash kerak emas, chunki ular turlicha maqsadni ko'zlab bir - biridan farqlanadilar.

Mustaqil O'zbekistonda olib borilayotan moliyaviy siyosat, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga monad holda amalga oshirilib, uning negizini muhtaram Prezidentimiz tomonidan bozor iqtisodiyotiga o'tishiniing 5 asosiy kontseptsiyasi tashkil etadi. Olib borilgan islohotlarning umumiy tavsifi va strategiyasidan kelib chiqib, byudjet-soliq, siyosatining quyidagi bosqichlarini ajratishimiz mumkin:

**I bosqich – 1991-2000 yillar**. Ushbu bosqich tom ma'noda mustaqil byudjet tizimini shakllantirish – "o'tish davri"- deb nomlanib, quyidagi vazifalar kesimida islohotlar olib borildi:

– byudjet daromadlari va xarajatlarini qayta ko'rib chiqish va tasniflash;
– byudjet defitsitni kamaytirish;
– kuchli ijtimoiy siyosat – Davlat byudjetining muhim yo'nalishi sifatida;
– byudjetlaro munosabatlarni shakllantirish;
– byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish;
– byudjet tasniflarini halqaro standartlarga maqbullashtirish o'z ichiga oldi.
– milliy soliq tizimi va uni huquqiy asoslarini shakllantirish;
– soliq tizimini soddalashtirish va uni iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rag'batlatirish tizimini shakllantirish.

**2-bosqich. 2001- hozirgacha.** Tom ma'noda iqtisodiyotni erkinlashtirish shart sharoitlariga muvofiq davlat moliyasini isloh qilish va uning huquqiy asoslarini yaratish- deb nomlanib, quyidagi vazifalar kesimida islohotlar olib borildi:.

– "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunni amalga kiritilishi;
– byudjet tasnifi va byudjetdan moliyalashtirish tizimini soddalashtirish;
– davlat byudjeti xarajatlarini manzilli va maqsadli yo'nalishini ta'minlash;
– byudjet xarajatlarini tarkibiy isloh qilish;
– hududlarni dotatsiyadan chiqarish va mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini barqarorlashtirish;
– davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish;
– davlat byudjetini ijrosini G'azna tizimi joriy qilish va uni rivojlantirish;
– byudjet muassasalarini moliyalashtirishni isloh qilish;
– joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining masu'liyatini oshirish bilan ularning moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash;
– soliq yukini kamaytirish;

– soliq ma’murchiligini takomillashtirish;
– soliq tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish;
– soliq tizimini soddalashtirish.

**Zamonaviy sharoitlarda byudjet-soliq tizimidagi islohotlarning strategik yo’nalishlari quyidagilardan iboratdir:**

– byudjet defitsitini samarali boshqarish
– g’aznachilik tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish;
– byudjet qonunchiligini mustahkamlash;
– o’rta mudatli fisal siyosat amaliyotini joriy qilish;
– natijaga yo’naltirilgan byudjet modelini joriy etish;
– dotatsion rejimdagi byudjetlarni tugatish va mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlash;

Amalga oshirilgan iqtisodi islohotlar natijasida:

– 2013 yilda YaIM tarkibida nodavlat sektorining ulushi 82,8% bo’lib, ulgurji va chakana savdo, hamda qishloq xo’jaligi mahsulotlarining esa qariyib 100%i nodavlat sektori tomonidan ishlab chiqarilmoqda;
– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 1991 yilda 1,5%ni tashkil etgan bo’lsa, 2013 yilda 55,8%ga etdi;
– xizmat ko’rsatish sektorining YaIMdagi ulushi 1991 yilda 16,3%dan 2013 yilda 53,0%ga o’sdi;
– 1991-2013 yillar mobaynida YaIMda sanoat ulushi 2,2 barobar, ya’ni 11%dan 24,2%ga o’sdi;
– 1991 yilda eksport tarkibining qariyib 90%ni xom-ashyo mahsulotlari tashkil etgan bo’lsa, hozirgi kunda qariyb 72%ni tayyor mahsulotlar tashkil etishiga erishildi va boshqalar.

O’rta muddatli istiqbolda Hukumat quyidagilar vositasida investitsion muhitni yaxshilash, iqtisodiy raqobatbardoshliikni oshirish, samarali ish o’rinlarini yaratish va norasmiy biznesni qonuniylashtirishni rag’batlantirishga yo’naltirilgan soliq islohotlarini yakunlaydi:

a) soliq yukini yanada kamaytirish. 2017 yilgacha bo’lgan maqsadli yo’nalish, soliq yuki darajasini YaIMga nisbatan 20 foizgacha kamaytirish ko’zda tutilgan. Bu korxonalarga ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi ish o’rinlarini hisobidan yaratishga, daromadlarni shakllantirishga va kambag’allik darajasini pasaytirishga imkon beradi;

b) soliq ma’muriyatchiligi tizimini yanada soddalashtirish;

v) soliq qonunchiligi barqarorligini ta’minlash, soliq siyosatining oldindan belgilanishi va ravshanligini oshirish;

g) davlat xarajatlarini optimallashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun soliq islohotlari quyidagi asosiy yo’nalishlar orqali amalga oshiriladi:

• daromad solig’i, umumiy ijtimoiy soliq, QQS stavkalarini yanada qisqartirish va soliqqa tortiladigan foyda bazasini hisob-kitob qilishni optimallashtirish.

Bunday yondoshuv iqtisodiyotning ko’p mehnat talab qiladigan tarmoqlarini

rivojlantirish va aholi bandligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi;

• davlat byudjetiga soliq tushumlarining 10-12 foizini tashkil qiluvchi soliq imtiyozlarini inventarizatsiya qilish va xo'jalik sub'ektlari uchun bir xil sharoitlar yaratish maqsadida bu imtiyozlarni qisqartirish. Individual imtiyozlar to'liq bekor qilinadi;

• iqtisodiyotning sermehnat tarmoqlariga yuk bo'lib tushadigan va bandlikning o'sishiga to'sqinlik qiluvchi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va umum ijtimoiy to'lovlar stavkalarini qisqartirish va optimallashtirish. Ikkita stavkali daromad solig'iga o'tish, daromad solig'i shkalasini qayta ko'rib chiqish va turli stavkada soliqqa tortiladigan guruhlar o'rtasidagi oraliqni kengaytirish mo'ljallanmoqda;

• soliqlar ta'sirini tabiiy resurslardan samaraliroq foydalanishga yo'naltirgan holda ularning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish. Foydali qazilmalar qazib olish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlarni soliqqa tortish tizimi, renta olishni hisobga olgan holda tashkil etiladi. Ya'ni turli konlar uchun bir xil sharoitlar yaratish maqsadida, ularni o'zlashtirish va ishlab chiqish sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda foydali qazilmalarga soliq stavkalarini differentsiatsiyalash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi;

• soliq ma'muriyatchiligi soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va bir xillashtirish yo'nalishida isloh qilish, soliq xizmatlari ishini optimallashtirish.

Bu sohadagi asosiy ustuvorliklar quyidagilardan iborat:

- bir xil bazaga ega bo'lgan soliqlarni (foyda solig'i va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va obodonlashtirish solig'i; umumiy ijtimoiy to'lov va majburiy sug'urta to'lovlari; yalpi daromad yoki tushumdan byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar) birlashtirish, aktsiz soliqlarini bir xil shakllarga keltirish;

- korxonalarni yalpi sayyor tekshiruvi o'rniga tanlanma nazoratni yo'lga qo'yish maqsadida, soliq hisobi va nazorati tizimini modernizatsiyalash, bunda soliq tekshiruvlari faqat «yuqori tahdid» guruhiga kiruvchi ayrim korxonalar uchun belgilanadi. Tahdid-tahlil tizimi asosida soliq to'lovchilarni tanlashning yangi mexanizmini joriy qilinishi soliq nazoratini mutadil yashirin qoidabuzarlargacha qisqartirgan holda samaraliroq amalga oshirish imkonini beradi. Qonunga rioya qiladigan tadbirkorlar amalda soliq organlari bilan muammolarga duch kelmaydi;

Byudjet siyosatining o'rta muddatli istiqbolda mo'ljallangan chora-tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

• byudjetni rejalashtirishning o'rta muddatli tizimiga o'tish, ya'ni yillik byudjetni 3 yilga o'rta muddatli ko'rsatkichlar doirasida bashorat qilish. Byudjet loyihasi doirasidagi o'rta muddatli byudjet, davlatning yillik byudjet xarajatlariga doir siyosatida belgilangan tadbirlarni o'zgartirish vositasiga aylanadi va o'rta muddatli ustuvorliklarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi;

• davlat xarajatlarini optimallashtirish. Bunga quyidagilar orqali erishiladi:

a) byudjetdan mablag' oluvchilar miqyosida byudjet mablag'laridan qulay foydalanish imkoniyatlarini yaratgan holda byudjetni rejalashtirish, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimida kishi boshiga moliyalashtirishga o'tishni nazarda tutadigan tizmini takomillashtirish (jumladan, ish haqi xarajatlari va unga tenglashtirilgan to'lovlar);

b) davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlarni davlat g'aznachiligi orqali

tashkil etishga to'liq o'tish. Bu daromadlar va xarajatlar bo'yicha barcha operatsiyalarni umumiy hisob raqamida birlashtirishni ta'minlaydi, umumiy hisob va hisobot standartlarini yaratish va byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni yangi sifat asosida nazorat qilishga xizmat qiladi;

• byudjetlararo munosabatlar tizimini isloh qilish. Bu mahalliy hukumat organlarining resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va daromadlar bazasini kengaytirishdan manfaatdorligi va mustaqilligini kuchaytirishga yo'naltiriladi. Buning uchun qonunchilikda byudjet mablag'larini sarflash vakolatlarining markaziy va mahalliy hukumat organlari o'rtasida taqsimlanishi belgilandi, barqaror (3 yillik) umumdavlat soliq tushumlari normativlari asosida markaziy va mahalliy byudjetlar o'rtasida umumdavlat soliqlarini taqsimlashning barqaror va ochiq mexanizmi ishlab chiqildi va joriy qilindi.

## 2.4. O'zbekistonda davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning tahlili.

Davlat moliyasining asosiy etakchi bo'g'ini davlatning byudjet tizimi hisoblanadi. Davlat byudjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida iqtisodiy, ijtimoiy sohadagi davlat siyosatining yo'nalishlarini o'zida ifodalaydi.

Ma'lumki, davlat byudjeti daromadlarining etarli darajada bo'lishi mamlakatda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarni belgilangan miqdorda va muddatlarda moliyaviy taminlash imkoniyatini beradi. Shuning uchun bugungi kunda byudjet daromadlarini samarali shakllantirish va ularning hajmini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero bu boradagi ishlarni amalga oshirish natijasida jamiyatning barcha qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun imkon bermoqda. Prezidentimiz takidlaganlaridik: "Biz o'z oldimizga qo'ygan strategik maqsadlar, yani zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini taminlash, hayot sifatini yaxshilash va jahaon hamjamiyatida munosib o'rin egallash borasida say-harakatlarimizga bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona baho berishimiz tabiiydir". Prezidentimiz I.A. Karimovning "2012- yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013- yilgi iqtisodiy dasturining asosiy ustuvor vazifalari to'g'risidagi" 2013- yil 18 yanvardagi marzasida ham aynan shu yo'nalishdagi ustuvor vazifalar ichida "aholining hayot darajasini va sifati izchil oshirilishini taminlash" vazifasi diqqatga sazovardir. Bu boradagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o'z vaqtida to'liq va ijobiy hal etish ma'lum moliyaviy asosni talab etib, ushbu asosning markaziy bo'g'inini davlat byudjeti daromadlari tashkil etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti daromadlarining asosini soliqlar tashkil qiladi. Soliqlarni undirish jarayonida bevosita respublika byudjetiga tushadigan hamda mahalliy byudjetlarga undiriladigan soliqlarni ko'rishimiz mumkin. Respublika byudjetiga undiriladigam umumdavlat soliqlarinin bir qismi hududlar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldiriladi. Quyida mazkur jarayonni tahlilini ko'rib chiqamiz.

Soliq tizimining asosi bo'lgan yo'naltirilishiga va boshqa belgilariga ko'ra ularning tasniflanishidir. Soliqlarni bunday tartibda guruhlarga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funktsiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat byudjetini

doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta’minlashda, shuningdek xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo’ymasdan faoliyat ko’rsatishi uchun soliqlarning har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o’rganish, tahlil qilishdan iborat.

Soliq tizimining bosh vazifasi davlat byudjetininig daromad qismini shakllantirish hisoblanadi.

Davlat bor ekan Davlat byudjetiga to’lovlar ham mavjud bo’ladi. Lekin byudjetga to’lovlarning shakli ma’lum bir bosqichda jamiyatning oldiga qo’yilgan vazifalarga muvofiq ravishda o’zgarib boradi. Tarixiy taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida byud-jetga to’lovlarning u yoki bu turi hal qiluvchi rolni o’ynashi, vaqt o’tishi bilan esa ular o’z ahamiyatini yo’qotib, boshqa to’lovlar bi-lan almashtirilishi mumkin. Bu esa, o’z navbatida, “Davlat byudjeti daromadlari” kategoriyasining namoyon bo’lish shakllarining o’zgarib borganligiga qaramasdan, bu kategoriyaning saqlanib qolganligini anglatadi. Demak, byudjetga to’lovlar ko’rinishining o’zgarishi, bir to’lovning boshqa biri bilan almashtirilishi bu iqtisodiy kategoriya mazmunining emas, balki shakllarining evolyutsiyasidir. Barcha turdagi markazlashgan fondlarga ajratmalar umumiy makrodarajada soliq to’ovchilarning moliyaviy ahvoliga, ularning iste’mol talabiga ta’sir etadi. Hozirgi kunda davlat ixtiyorida turli tuman markazlashtirilgan fondlar shaklantirilib, ularning orasida davlatning byudjet tizimi markaziy o’rinni egallaydi. byudjet tizimining daromadlari esa asosan soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Bu bo’yicha quyidagi jadval ma’lumotlarni ko’rishimiz mumkin.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibiki, Respublika bo’yicha markazlashtirilgan fondlar tarkibida byudjet tizimi 2014- yilda 62,9%ni tashkil etgan bo’lsa, 2015- yilga kelib ushbu ko’rsatkich 62,3%ni tashkil etmoqda.

**2.1-jadval**

**Davlat byudjetiga 2014-2015 yillarda undirilgan mablag’lar tarkibi**

| T/r | Manbalar nomi | 2014 yil | 2015 yil | O’zgarishi |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Byudjet tizimi | 62,9 | 62,3 | -0,6 |
| 2. | Pensiya jamg’armasi | 31,0 | 31,5 | 0,5 |
| 3. | Respublika yo’l jamg’armasi | 4,3 | 4,4 | 0,1 |
| 4. | Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg’armasi | 1,8 | 1,8 | 0,0 |
| | **Respublika bo’yicha, jami** | **100,0** | **100,0** | **0,0** |

Manba: O’zR MV ma’lumotlari

Bu o'z navbatida Respublikamiz iqtisodiyotidagi sof soliq yukinining pasayishiga va oxir oqibatda soliq tiziminining korporativ sektor va uy xo'aliklarining pul daromadlarini ortishiga va pirovard natijada yalpi iste'mol talabini ortishiga ijobiy ta'sir etayotganligidan dalolat beradi. Maqsadli jamg'armalarning tarkibidagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ajratmalar miqdorining ortishi kuzatilmoqda. Xususan, ushbu jamg'armalarning Respublika bo'yicha markazlashtirilgan fondlar tarkibidagi ulushi 31,0%ni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda 31,5 %ga ko'paymoqda.

Quyida keltirilgan jadvalda byudjet daromadlari tarkibida to'g'ri va egri soliqlar, ularning soliqli daromadlar tarkibida tutgan o'rni, ulushi 2011-yildan 2015-yilgacha bo'lgan holati haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan:




**2.5-rasm. Byudjet daromadlarida to'g'ri va egri soliqlar nisbati**[17]

Respublikamizda davlat byudjeti daromadlari tarkibida egri soliqlar salmog`i kattaroq. 2011- yilda to'g'ri soliqlar 26,2%ni, egri soliqlar esa 53,5%ni tashkil etgan. 2012- yilda to'g'ri soliqlar 25,2%ni, egri soliqlar esa 54,3%ni tashkil etgan bo'lsa, 2013- yilda egri soliqlar 54,2, to'g'ri soliqlar esa 25,1%ni tashkil etgan. Ushbu tendentsiyada egri soliqlarning o'sib borishi kuzatilayotgan bo'lib, ushbu o'sish 2015- yilga kelib egri soliqlarda 54.3%ni tashkil etgan. To'g'ri soliqlar esa, 2015-yilga kelib jami byudjet daromadlarida 25,2%ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar mamlakatimizda egri soliqlar ulushi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlarning ayrimlari koxonalar ho'jalik faoliyatining oxirgi moliyaviy natijasidan byudjetga to'lanadigan aksariyat soliqlar va majburiy to'lovlar kelgusi davr xarajatlari orqali ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi (er solig'i, mol-mulk solig'i va boshqalar).

Rivojlangan industriya davlatlarda, xususan, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya va Kanadada soliqlar davlat byudjeti daromadlarining 90 foizgacha bo'lgan qismini, AQShda esa 70 foizdan ortiq qismini tashkil etadi.

---

[17] www.stat.uz internet sayti.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining 93-94 foizdan ortiq qismi soliq tushumlaridan iborat.




**2.6-rasm. 2019-yilda davlat byudjeti daromadlari tuzilmasi**[18]

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda soliqlar o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar tog'ri va egri soliqlarga bo'linadi. Quyida egri soliqlarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni va tahlilini ko'rib chiqamiz. Egri soliqlar deb haqiqiy to'lovchisi istemolchi huquqiy to'lovchisi yuridik shaxs bo'lgan soliq turlariga aytiladi. Egri soliqlar asosan aholining daromadini qayta taqsimlaydi va muomaladagi tovar bilan himoyalanmagan ortiqcha pullarni yig'ishtirishda samara berib, pulning qadrsizlanishini kamaytirishda ijobiy o'rin tutadi. Egri soliqlar soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Soliq nazariyasidan ma'lumki, egri soliqlar mahsulot bahosiga yoki xizmat ta'rifiga ustama shaklda qo'yilib olinadigan soliqdir. Egri soliqlar soliq to'lovchining daromadiga yoki mol-mulkiga ta'sir etmaydi. shuning uchun bu soliqlar to'lovchining moliyaviy faoliyatiga ta'sir ko'rsatmaydi va to'lovchilarga soliq yuki tushmaydi. Soliq yuki egri soliq o'rnatilgan tovarlarni

[18] www.mf.uz (фуқаролар учун бюджет лойиҳаси).

iste'mol qiluvchilarga tushadi.

Bugungi kunda rivojlagan mamlakatlarda kuzatilayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning tobora keskinlashib borayotganiga qarmasdan, mamlakatimizda kuzatilayotgan barqaror iqtisodiy o'sish sur'tlarining ta'minlanishida izchil olib borilayotgan byudjet-soliq siyosatining ahamiyati g'oyat yuksakdir. Buni o'z navbatida keyingi yillarda kuzatilayotgan byudjet profistiti, rejalashtirilgan davlat byudjeti daromad ko'rsatkichlarining orttirib bajarilayotgani, davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi yanada rivojlantirilishi natijasida byudjet xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanayotgani bilan izohlash mumkin.

Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy tahlilidan ko'rinadiki, egri soliqlardan byudjetga rejalashtirilgan tushum 2012- yilda 11187,8 milliard so'm bo'lsa, 2015- yilda 19115,8 milliard so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Uning jami byudjet daromadlaridagi salmog'i 51,9 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan.

**2.2-jadval**

**Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlari to'g'risida ma'lumot**

| **Asosiy byudjet ko'rsatkichlari** | **2016 yil (mlrd. so'm)** | **2017 yil (mlrd. so'm)** | **2018 yil (mlrd. so'm)** | **2019 yil (mlrd. so'm)** | **byudjet daromadlarida salmog'i, %da** |
|---|---|---|---|---|---|
| Davlat byudjeti daromadlari | 20 614,1 | 25 104,9 | 30 160,8 | 36 184,9 | 100 |
| Shu jumladan: Bevosita soliqlar | 5 196,4 | 6 583,1 | 7 790,4 | 8 554,3 | 25,2 |
| Bilvosita soliqlar | 11 187,8 | 13 039,4 | 15 618,2 | 19 115,8 | 54,3 |
| Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i | 2 746,4 | 3 755,5 | 4 521,4 | 5 741,8 | 13,8 |
| Qo'shimcha foyda solig'i | 250,0 | 294,5 | 388,4 | 548,2 | 1,5 |
| Boshqa daromadlar | 1 233,5 | 1 432,4 | 1 842,4 | 2 224,8 | 5,2 |
| byudjet xarajatlari | 21 571,7 | 26 312,4 | 31 582,3 | 37 967,7 | byudjet defitsiti YaIMga nisbatan 1,0 foiz |

Manba: O'zR DSQ ma'lumotlari

Demak, umumiy soliq tizimining mamlakatdagi yalpi iste'mol talabiga ta'sirining pasayishida to'g'ri soliqlarning hissasi yuqori bo'lmoqda.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish va mamlakatdagi yalpi istemol talabni rabatlantirishda to'g'ri soliqlarnining hissasi ulkandir. To'g'ri soliqlar soliq to'lovchilarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Shuning uchun ham ushbu soliqlar vositasida mamlakat milliy iqtisodiyotini samarali tartibga solish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Keyingi 3 yil mobaynidagi tendentsiya shuni ko’rsatmoqdaki, har bir soliq turi bo’yicha, tushumlar miqdori nominal mazmunda o’sib bormoqda. Ushbu o’sish sur’atida bevosita soliqlarning sur’ati yuqori bo’lmoqda.

Tahlil qilinayotgan davrlarda bevosita soliqlar bo’yicha tushumlar o’sib bordi. Xususan, davlat byudjetining daromadlar qismida bevosita soliqlar 2012-yilda ushbu ko’rsatkich 5196,4 mlrd. so’mga, 2015-yilga kelib ushbu soliqlardan tushumlar 8554,3 mlrd. so’mni tashkil etgan.

Ushbu daromadlar tarkibida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i bo’yicha tushumlar 2012-yilda 917,2 mlrd. smni tashkil etgan. Bu soliq turi bo’yicha 2014-yildagi ko’rsatkich 1302,2 mlrd. so’mni tashkil etgan bo’lib, 2015-yilda pasayish tendentsiyasiga ega bo’lmoqda. Xususan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i bo’yicha tushumlar 2015 yilda 1285,8 mlrd. so’mni tashkil etgan.

**2.3- jadval**

**Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda to’g’ri soliqlarning tutgan o’rni**

| **Ko’rsatkichlar** | | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | 2019yil |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so’m | mlrd. so’m | mlrd. so’m | mlrd. so’m |
| Daromadlar, davlat maqsadli jamg’armalarisiz – jami | | 20614,1 | 25104,9 | 30 160,8 | 36 184,9 |
| 1. Bevosita(to’g’ri) soliqlar | | 5196,4 | 6853,1 | 7 790,4 | 8 554,3 |
| 1.1 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i | 917,2 | 1239,0 | 1302,3 | 1285,8 |
| 1.2 | Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to’lovi | 703,5 | 817,3 | 989,8 | 1193,1 |
| 1.3 | Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to’lovi | 538,5 | 755,1 | 911,6 | 1067,1 |
| 1.4 | Jismoniy shaxslarning daromad solig’i | 2372,7 | 2769,7 | 3313,9 | 3648,8 |
| 1.5 | Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo’yicha olinadigan kat’iy belgilangan soliq | 218,1 | 342,1 | 505,0 | 617,0 |
| 2. | Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i | 446,4 | 659,9 | 767,8 | 743,5 |

Manba: O’zR DSQ ma’lumotlari

Shuningdek, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i bo’yicha tushumlarning pasayishi yana soliqqa tortishning soddalashtirilgan rejimini tanlovchi soliqlar to’lovchi sub’ektlarning sonini ortib borayotganligi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, yalpi iste’mol talabini rag’batlantirish, soliq to’lovchilar uchun qulay moliyaviy imkoniyatlar yaratish maqsadida ushbu soliqlar bo’yicha belgilangan stavkalarni kamaytirilishi bilan izohlash mumkin.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi hamda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha tushumlar sur'ati qariyib 2 barobarga yaqin bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Bu holat o'z navbatida kichik biznes sub'ektlari uchun yaratilayotgan imtiyoz va preferentsiyalar hisobiga ularning faoliyatini yanada rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

To'g'ri soliqlarning tarkibida fiskal ahamiyati yuqori darajani tashkil etgan soliqlardan biri jismoniy shaxslar daromadlaridan linadigan soliqdir. Ushbu soliq bo'yicha tushumlar 2012-yilda 2372,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib prognoz ko'rsatkich 3648,8 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Agar umumiy o'sish tendentsiyasini kuzatadigan bo'lsak undu quyidagi manzarani ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida aholining televizorlar bilan, ayniqsa, mutlaqo yangi avlod televizorlari – plazma ekranli rangli televizorlar bilan ta'minlanishi 1,6 barobar, engil avtomobillar bilan ta'minlanishi 3,5-marta oshgani ham oilalarimizning farovonligi yuksalib borayotganining yaqqol tasdig'idir. Bugungi kunda deyarli har ikki oiladan biri shaxsiy transport vositasiga ega va bu mashinalar aynan yurtimizda ishlab chiqarilgani barchamizga mamnuniyat va g'urur bag'ishlaydi". Demak, aholining real daromadini ortishi ularnining iste'mol talaini ortishiga va oxir oqibat ularning turmush farovonligini ortishiga olib kelmoqda.

Ushbu tendentsiyada aholining pul daromadlari va mamlakatdagi iste'mol talabiga eng yuqori darajada ta'sir etuvchi jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning roli g'oyat yuksakdir.

Keyingi yillarda ushbu soliq bo'yicha stavkalar izchil pasaytirilib kelinmoqda. Bunda 3 asosiy strategiya ko'zda tutilgan:

– jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq bo'yicha belgilangan stakalarning pasaytirilishi aholining pul daromadlarini oshirilishiga va ularning xarid qobiliyatini oshirish orqali yalpi istemol talabini yuksaltirish ikoniyatlariga ega bo'linadi;

– soliqlar bo'yicha stavkalarining tabaqalashtirilishi va ulardagi tarkibiy o'zgartirishlar aholi daromad darajasidan kelib chiqqan holda soliqqa tortilishini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida mamlakat aholisi o'rtasida daromadlar tengsizligini oldini olish va daromadlarni tenglashtirish imkoniyatlarini shakllantiradi;

– jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq bo'yicha belgilangan stakalarning amaldagi holati kam ta'minlangan aholi qatlamini ijtimoiy himoyalash imkoniyatlarini shallantiradi.

Istiqbolda amalga oshiriladigan islohotlar va unda daromad solig'inining o'rniga to'xtalib, Prezidentimiz Islom Karimovnining quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin, "Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatida uning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi.

**2.5- jadval**

**Bilvosita soliqlarning O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tizimida tutgan o'rni**

| Ko'rsatkichlar | | 2016-yil mlrd.so'm | 2017-yil mlrd.so'm | 2018-yil mlrd.so'm | 2019-yil mlrd.so'm |
|---|---|---|---|---|---|
| Daromadlar, davlat maqsadli jamg'armalarisiz – jami | | 20614,1 | 25104,9 | 30160,8 | 36184 |
| **1. Bilvosita (egri) soliqlar** | | 11187,8 | 13039,4 | 15618,2 | 19115,8 |
| 1.1. | Qo'shilgan qiymat solig'i | 6784,5 | 7737,8 | 9123,1 | 10721,7 |
| 1.2. | Aktsiz solig'i | 3115,5 | 3726,5 | 4506,0 | 5528,8 |
| 1.3. | Bojxona bojlari | 732,4 | 992,6 | 1142,0 | 1583,6 |
| 1.4. | Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq | 555,4 | 582,5 | 847,1 | 1281,7 |

Manba: O'zR DSQ ma'lumotlari

Soliq tizimida bilvosita soliqlarning tutgan o'rni benihoya yuqori bo'lib, ular bir tomondan faol fiskal vazifani bajarsa, ikkinchi tomondan yalpi istemol talabiga faol tasir etish ikoniyatlariga egadir. Ularning o'ziga xos xususiyatlaridan biri iste'moldan olinadigan soliqlar tavsifiga egaligidir.

Bilvosita soliqlar tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar asosiy salmoqqa egadir. Xususan, ushbu soliq bo'yicha tushumlar  2012 yilda 6784,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 19115,8 mlrd. so'mni tashkil etgan. Ushbu soliq bo'yicha tushumlarning keyingi yillardagi dinamik o'sish tendentsiyasi yuqori bo'lishi bilan birga ular davlat byudjeti daromadlarini asosiy qismini shakllatirib beradi. Aktsiz solig'i bo'yicha tushumlar 2012-yilda 3115,5 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2015-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 5528,8 mlrd. so'mga etgan. Tashqi iqtisodiy faoliyat natijasida olingan bojxona bojlarining umumiy miqdori 2015- yilda 1583,6 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq bo'yicha tushumlar esa 2012- yilda 555,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015- yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1281,7 mlrd. so'mni tashkil etishi ko'zda tutilmoqda.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, egri soliqlar mamlakat aholisining yalpi iste'mol talabini nisbatan tartibga solish vazifasini ham bajarmoqda.

Davlat byudjetida resurs soliqlarining ham salmog'i yuqoridir. Buni quyidagi jadval malumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

**2.6- jadval**

**O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tizimida resurs soliqlarini tutgan o'rni**

| Ko'rsatkichlar | 2016-yil mlrd.so'm | 2017-yil mlrd.so'm | 2018- yil mlrd.so'm | 2019-yil mlrd.so'm |
|---|---|---|---|---|
| Daromadlar, davlat maqsadli jamg'armalarisiz – jami | 20614,1 | 25104,9 | 30160,8 | 36184 |
| **Resurs to'lovlari va mulk solig'i** | 2746,4 | 3755,5 | 4521,4 | 5741,8 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.1 | Mol - mulk solig'i | 642,0 | 831,4 | 1135,0 | 1716,7 |
| 1.2. | Er solig'i | 446,0 | 646,3 | 662,0 | 929,6 |
| 1.3 | Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq | 1585,3 | 2180,1 | 2595,8 | 2931,8 |
| 1.4 | Suv resurslaridan foydalanganlik soliq | 73,1 | 97,7 | 125,3 | 163,7 |

Manba:O'zR DSQ ma'lumotlari

Yuqoridagi tahlillarimizda davlat byudjeti daromadlari strkturasi va ular bo'yicha reja ko'rsatkichlarini ko'rib chiqdik. Endi ushbu reja ko'rsatkichlari bo'yicha daromadlar tushumlarining ijrosini ko'rib chiqamiz.

Resurs soliqlari tarkibida mol-mulk solig'ining o'rni yuqori bo'lib, mol-mulk solig'i aholinining iste'ml talabiga tasir etadi. Ushbu soliqlar bo'yicha tushumlar 2012- yilda 642,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015- yilga kelib 1716,7 mlrd. so'mga prognozlashtirilgan. Er solig'i 2012- yilda 446,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib 929,6 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Har ikkala soliq turi bo'yicha jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlari mavjud bo'lib, ushbu soliqlar uy xo'jaliklarining pul daromadlari va iste'mol talabiga ta'sir ko'rsatadi.

Hozrigi aksariyat mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi yoki retsessiya holatlarining kuzatilishiga qaramasdan daromadlarning orttirib bajarilishi birinchidan, iqtisodiyotdagi barqaror o'sish sur'atlarining kuzatilayotganligi natijasida umumiy soliq salohiyatining ortayotganligi bilan bog'liqdir. Ikkinchidan, samarali soliq siyosati natijasida iqtisodiyotda qulay investitsion muhit shakllantirilmoqda. Uchinchidan, ustuvor tarmoqlarga berilgan soliq imtiyozlari natijasida ularagi ishlab chiqarish faoliyatini rivojlanishi natijasida soliq bazasi kengaymoqda.

Hozirgi byudjet tizimidagi asosiy muammolardan biri mahalliy byudjetlarning daromadlarining barqarorligini oshirish hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga Prezidentimiz Islom Karimov to'xtalib quyidagi fikrlarni aytib o'tgan edilar, “2013- yilda mutanosib va barqaror davlat byudjetini shakllantirish maqsadida soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlash, butun soliq tizimini soddalashtirish va uning oshkoraligini ta'minlash bo'yicha tegishli tadbirlar ko'zda tutilmoqda”.

Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, byudjet-soliq siyosatida mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlash masalasi ustuvor masala sifatida e'tirof etilmoqda.

Davlat byudjetining asosiy vazifasi davlatning fiskal siyosati mazmunini va yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi. Kengroq ma'noda aytganda, davlat byudjetining asosiy vazifasi milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash, iktisodiyotni tartibga solish va rag'batlantirish, ijtimoiy siyosatni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, mamlakatning markazlashtirilgan pul jamg'armalarini vujudga keltirish va ulardan foydalanish ustidan nazorat kilish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining keyingi yillardagi tarkibiy tahlillari ko'rsatadiki, xarajatlar nominal mazmunda (mutlaq

ko'rsatkichlarida) ortib borayotganligi kuzatishimiz mumkin. Lekin, uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'ining kamayib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Shu bilan bir qatorda davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining izchil ravishda ortib borayotganligi davlatimiz tomonidan kuchli ijtimoiy siyosatning moliyaviy asoslarini shakllantirilayotganligini tasdiqlaydi.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibidagi ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari yil sayin oshib borgan. Keyingi 5 yil mobaynida jami byudjet xarajatlarining tarkibida ijtimoiy sohaga qilinayotgan xarajatlar 2011- yilda 58,2 %dan 2015-yilda 59,1 %gacha o'sib borgan. Ushbu holat o'z navbatida, jahondagi barcha davlatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etadiki, o'z navbatida Respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning uzoq, strategik ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir. Shuningdek, ushbu xarajatlarning o'sib borishi bilan birga ularning davlat byudjeti xarajatlaridagi eng yuqori salmoqni tashkil etmoqda.

Iqtisodiyot xarajatlari esa 2011- yilda 1938 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, jami byudjet xarajatlarida 11,5 foizni tashkil etgan. 2015- yilga kelib ushbu xarajatlarning jami davlat byudjeti xarajatlaridagi salmog'i 10,1 %ni tashkil etgan. Lekin, ushbu xarajatlar nominal mazmunda o'sib borgan.

**2.1-jadval**

**Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi**

| Ko'rsatkichlar | 2015 yil | | 2016 yil | | 2017 yil | | 2018 yil | | 2019 yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Mlrd.so'm | % | Mlrd.so'm | % | Mlrd.so'm | % | Mlrd.so'm | % | Mlrd.so'm | % |
| Davlat byudjeti xarajatlari, milliard so'm | 16802 | 100 | 21190 | 100 | 26312 | 100 | 31582 | 100 | 37967,7 | 100 |
| Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvatlash xarajatlari | 9723 | 58,2 | 12338 | 58,3 | 15573 | 59,2 | 18873 | 59,7 | 22457,0 | 59,1 |
| Iqtisodiyot xarajatlari | 1938 | 11,5 | 2338 | 11 | 2791 | 10,6 | 3385 | 10,7 | 4119,7 | 10,1 |
| Markazlashgan investitsiya-larni moliyalashti-rish | 1037 | 6,1 | 1174 | 5,5 | 1300 | 4,9 | 1500 | 4,7 | 1800 | 4,7 |
| Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari | 627 | 3,7 | 844 | 3,9 | 825 | 3,1 | 1000 | 3,1 | 1199,9 | 3,1 |
| Boshqa xarajatlar | 3477 | 20,6 | 4495 | 21,2 | 5813 | 22,0 | 6903 | 21,8 | 8391,1 | 22,0 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish uchun 2011 yilda 1037 mlrd. so'm, 2011- yilda 1037 mlrd. so'm, 2012- yilda 1174 mlrd. so'm, 2013- yilda 1300 mlrd. so'mni, 2014- yilda 1500 mlrd. so'mni va 2015- yilda 1800 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Bu o'z navbatida hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangilash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish bilan bog'liq yirik va strategik ahamtyatga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishda byudjet investitsiyalarining ham ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari faoliyati uchun xarajatlar jami xarajatlar tarkibida 2011- yilda jami byudjet xarajatlarini 3,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015- yilga kelib bu xarajatlar 3,1 foizni tashkil etmoqda. Demak, nominal mazmunda ushbu xarajatlar qariyib 2 barobardan ko'p o'sgan bo'lsa-da, ularning byudjet xarajatlaridagi salmog'i kamayib borgan.

Yuqoridagi jadval ko'rsatkichlari byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'zida ifoda etib, unda tabiy ravishda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari ustuvor ekani kuzatilmoqda.

Hozirgi sharoitda davlat byudjeti uchun nisbatan yuqori darajadagi moliyaviy yuk bo'lib tushayotgan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari bir tomondan aholining kam ta'minlangan qatlamini himoyalash moliyaviy asosini o'zida ifodalaydi. Ikkinchidan, aholining turmush farovonligini oshirish, zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini shakllantirishda davlat byudjetining ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatib bermoqda.

Davlat byudjetining ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari asosan ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy nafaqalar kabi xarajatlarni o'z ichiga oladi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin.

**2.2- jadval**

**Davlat byudjetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlar tarkibi (prognoz)**

| Ko'rsatkichlar | 2015 yil | | 2016 yil | | 2017yil | | 2018yil | | 2019yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Mlrd.so'm | % | Mlrd.so'm | % | Mlrd.so'm | % | Mlrd.so'm | % | Mlrd.so'm | % |
| **Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvatlash xarajatlari** | **9723** | **100** | **12338** | **100** | 15573 | 100 | 18873 | 100 | 22457,0 | 100 |
| Ta'lim | 5604 | 57,6 | 7163 | 58,1 | 8984 | 57,6 | 10765 | 57,0 | 12776,2 | 56,8 |
| Sog'liqni saqlash | 2228 | 22,9 | 3027 | 24,5 | 3768 | 24,1 | 4495 | 23,8 | 5372,5 | 23,9 |
| Madaniyat va sport | 185 | 1,9 | 226 | 1,8 | 279 | 1,7 | 334 | 1,7 | 388,2 | 1,7 |
| Ilm-fan | 109 | 1,1 | 139 | 1,1 | 173 | 1,1 | 199 | 1,0 | 245,3 | 1,0 |
| Ijtimoiy ta'minot | 72 | 0,7 | 87 | 0,7 | 107 | 0,7 | 125 | 0,7 | 150,4 | 0,6 |
| Oilalarga ijtimoiy nafaqalar | 1383 | 14,2 | 1624 | 13,1 | 1839 | 11,8 | 2047 | 10,8 | 2279,8 | 10,1 |

Manba: Muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu xarajatlarning tarkibida, ta'lim sohasiga qilinayotgan byudjet xarajatlari 2011- yilda 5604 mlrd. so'mni tashkil etib, jami byudjet xarajatlaridagi ulushi 57,1 %ni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2012- yilgi jami byudjet xarajatlarida 58,1%ni, 2013- yilda mos ravishda 57,6 %ni, 2014 yilda mos ravishda 57,0 %ni, 2015- yilda esa ushbu xarajatlar 56,8 %ni tashkil etishi ko'zda tutilgan.

2011-2015 yillardagi davlat moliyasi tizimi barqarorligini ta’minlash bo’yicha islohotlardagi muhim qadamlardan biri bu bir nafar o’quvchiga (tarbiyalanuvchiga) xarajatlarning bazaviy me’yorlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha tarbiya bolalari muassasalari, umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibini joriy etilganligi va 2010- yildan boshlab ushbu tartibni respublikaning barcha hududlaridagi mazkur muassasalarga tatbiq etilgani hisoblanadi. Natijaga yo’naltirilgan byudjetlashtirishning ushbu mexanizmi byudjet muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirilishini ta’minladi va xarajatlarning manzilli va maqsadli sarflanishi uchun sharoit yaratilishiga olib kelmoqda.

2011-2015 yillar mobaynida byudjet tashkilotlarida ish haqi va ijtimoiy nafaqalarning izchil ravishda oshirib borilishi davom ettirildi. Jumladan, birgina byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi 2014- yilda 23,2foiga oshirildi. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov 2014- yillardagi erishilgan natijalarga to’xtalib, quyidagi fikrlarni aytib o’tgan edilar, “Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o’tgan yili 23,2 foizga oshdi. Aholining jon boshiga to’g’ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko’paydi”.

Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turibdiki, davlat byudjeti xarajatlarni nafaqat, aholining turmush farovonligini oshirish bilan birga aholining jon boshiga to’g’ri keladigan real daromadlarini oshirishini ta’minlash orqali mamlakat milliy iqtisodiyotida yalpi iste’mol talabini rag’batlantirishda muhim moliyaviy omil bo’lib hisoblanmoqda. Bu o’z navbatida hozirgi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining tez o’zgarib borayotgan halqaro bozorlardagi konyunkturaning salbiy ta’siridan o’ziga xos ravishdagi “Immuniteti”ni shakllantirishda asos bo’lib xizmat qilmoqda.

Demak, davlat byudjeti xarajatlari bir tomondan ijtimoiy sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishni mustahkam moliyaviy manbai bo’lib hisoblanishi bilan birga milliy iqtisodiyotdagi islohotlarda davlatning bosh islohotchilik rolini bajarilishida ham markaziy o’rinni egallamoqda. Hozirgi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligining asosi hisoblangan qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, sohadagi ishlab chiqarishni intensivlashtirishda davlat byudjetining ahamiyati ham yuksak bo’lmoqda.

Davlat byudjetidan qishloq xo’jaligini moliyaviy qo’llab-quvvatlash tizimi quyidagi yo’nalishlarda amalga oshirilmoqda:

-qishloq va suv xo’jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo’jaligi tashkilotlari tomonidan iste’mol qilinadigan elektr-energiyasi to’lovlariga xarajatlar;

- O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug’oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar;

- hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo’jaliklarini moliyaviy qo’llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag’lar.

Davlat byudjetidan iqtisodiyotni qo’llab-quvvatlash uchun xarajatlari tarkibida

qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr-energiyasi to'lovlari jami byudjet xarajatlari tarkibida 2011- yilda 3,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2012 va 2013- yillarda 3,5 %ni, 2014 yilda 3,4 %ni, 2015 yilda esa 3,3 %ni tashki etishi ko'zda tutilgan[19].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007- yil 29- oktyabrdagi PF-3932 sonli «Erlarni meliorativ holatini yaxshilashning tizimlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq "Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini 2008-2012 yillarda yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" ishlab chiqilgan.

**2.3- jadval**

**Davlat byudjetining iqtisodiyot xarajatlari tarkibi, jamiga nisbatan %da**

| **Ko'rsatkichlar** | 2011 yil | 2012 yil | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil |
|---|---|---|---|---|---|
| **Davlat byudjeti xarajatlari** | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Iqtisodiyotga ajratilgan xarajatlar | 11,5 | 11,0 | 10,6 | 10,7 | 10,8 |
| Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr-energiyasi to'lovlari | 3,8 | 3,5 | 3,5 | 3,4 | 3,3 |
| Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladi gan erlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar | 1,1 | 0,9 | 0,8 | 0,9 | 0,8 |
| Hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash chun maqsadli mablag'lar | 0,8 | 0,7 | 0,8 | 0,9 | 0,6 |
| Boshqaxarajatlar | 5,7 | 5,7 | 5,7 | 5,8 | 6,1 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Ushbu dastur doirasida maxsus fond tashkil etilgan bo'lib, ushbu fond mablag'larini shakllantirishga byudjetdan xarajatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu fondga ajratmalarnining 2015 yildagi miqdori jami byudjet xarajatlariga nisbatan 0,8%ni tashkil etmoqda.

"Hosildorligi past bo'lgan erlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosini etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risida"gi Nizomda davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar quyidagi yo'nalishlarda sarflanishi ko'zda tutilgan:

- fermer xo'jaliklarining soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlari, boshqa joriy majburiyatlari, asosiy maxsulotlarni etishtirish uchun moddiy-texnika resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzlarini to'lashga;

[19] Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотларидан фойдаланилди.

- kelgusi yil hosili uchun sotib olinadigan resurslar va ko’rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan to’lovlarga;

- erlarni meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini va xo’jalikning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog’liq boshqa xarajatlarini moliyalashtirishga yo’naltiriladi.

Ushbu xarajatlarning jami byudjet xarajatlaridagi salmog’i 2015- yilga kelib 0,6 %ni tashkil etmoqda. Umumiy tendentsiyada pasayish kuzatilayotgan bo’lsa-da, nominal mazmunda unining o’sib bormoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko’rinib turibdiki, davlat byudjeti xarajatlarini samarli boshqarish pirovardida nafaqat ijtimoiy sohadagi davlat islohotlarining samardorligi ortmoqda, balki, o’z navbatida milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlanishini ta’minlashnining samarali mexanizmlarini shakllantirish imkoniyatlariga ega bo’linadi.

**Hozirgi vaqtda respublikamiz hukumati yaqin istiqbolga mo’jallangan davlat moliyasini boshqarish tizimida islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- davlat byudjetini rejalashtirish tizimini yanada takomilashtirish. Bunda byudjetni o’rta muddatli rejalashtirish tizimini joriy etish va natijaga yo’naltirilgan byudjetlatirishning zamonaviy metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish;
- davlat byudjeti ijrosining g’aznachilik tizimini yanada rivojlantirish;
- mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta’minlash va ularning moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshirish;

Davlat byujeti daromad va xarajatlarini samarali boshqarish tizimini shakllantirish bo’yicha islohotlar quyidagi yo’nalishlarda amalga oshirilmoqda:

**1. Davlat byudjeti daromad va xarajatlarini rejalashtirish tizimidagi islohotlar.** Bunda natijaga ynaltirilgan byudjetlashtirish tizimini joriy etish ustuvor ahamiyatga egadir. Natijaga yo’naltirilgan byudjetni rejalashtirishni qo’llash jamoatchilikni qo’shimcha ravishda quyidagilar haqida xabardor etishni talab qiladi:

- davlat xizmatlarini ko’rsatishda erishilgan (miqdor va sifat) ko’rsatkichlari, shuningdek, vazirliklar va idoralar faoliyatining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi haqida;
- yil mobaynida amalga oshirilgan davlat xarajatlarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi tahlili natijalari haqida;
- baholash metodologiyasi haqida, shuningdek, amalga oshirilgan tahlil natijalari bo’yicha ko’riladigan chora-tadbirlar haqida;
- byudjet xarajatlari samaradorligining tahlili natijasida taklif qilingan qonun hujjatlari va davlat siyosatidagi o’zgarishlar haqida, bu o’zgarishlar hukumat tomonidan qo’yilgan maqsadlarga erishishga qanday ko’maklashishi haqida.

**2. Ichki auditni amalga joriy etish va tashqi auditning vazifalarini o’zgartirish.** Xalqaro tajriba davlat boshqaruvi sektorining samaradorligini oshirish uchun xarajatlarni tasarruf etish vakolatlari operatsion menejerlarga berilishi lozimligidan dalolat beradi. Bu menejerlar (idoralar va muassasalarning asosiy funktsiyalarini bajaruvchi) asosiy (soha) bo’linmalarining xodimlaridir. Aynan ular byudjet xarajatlari yordamida quvvatlanuvchi va rivojlantiriluvchi davlat xizmatlarini ko’rsatish hamda aniq natijalarga erishish jarayoniga bevosita yaqin turadilar. Mazkur yondashuvdan foydalanish bunday “dala komandirlari” vaziyatni hammadan

yaxshi tushunishi va batafsil axborotga ega bo'lishiga asoslanadi. Shu sababli ular rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun resurslardan foydalanishga doir muayyan idoraning o'rta va oliy ierarxiyaviy darajalarida yoki mazkur idoradan tashqarida bo'lgan mansabdor shaxslarga qaraganda, samaraliroq qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega. Oddiy menejerlar, agar ularga qarorlar qabul qilishda etarli darajada erkinlik berilsa, harakatlariga ortiqcha aralashilmasa va ikir-chikirlarigacha nazorat qilinmasa, yaxshi natijalarga erishishga qodir bo'ladilar.

Albatta, vakolatlar kutilayotgan natijalarni aniq belgilash negizida o'tkazilishi lozim. Bunda mazkur natijalarga erishishda muayyan menejer ishtirok etadi va hisobot beradi. Bundan tashqari, davlat muassasalari ishining ichki tartib-taomillari xarajatlarni amalga oshirish monitoringi va byudjet parametrlariga rioya etilishi ustidan nazoratning samarali usullarini o'z ichiga olishi, shuningdek, xodimlarning insofsizligi hollariga yo'l qo'yilmasligini ta'minlashi lozim.

Xarajatlarni amalga oshirishning maqsadlari, vazifalari, pirovard va bevosita natijalarining tizimli tahlili o'z-o'zicha juda foydalidir, lekin amalda olg'a siljishga faqat byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan faoliyatni boshqarayotgan shaxslarning rolini butunlay o'zgartirish yo'li bilangina erishish mumkin.

Shuni hisobga olish lozimki, boshqaruv tuzilmalarini qayta qurish ma'muriy islohot yo'nalishlaridan biri – natijalarga ko'ra boshqarishning muhim elementi hisoblanadi. Ikkala islohot – ma'muriy islohot ham, byudjet islohoti ham ijro etuvchi hokimiyat organlarining va ular ko'rsatayotgan davlat xizmatlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shu sababli ular bir-birini quvvatlashi va o'z mazmuni, amalga oshirish ketma-ketligi va izchilligi nuqtai nazaridan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

**3. Davlat moliyaviy resurslarini boshqarishda samarali moliyaviy menejmentni amalga joriy etish.**

Byudjet jarayonini isloh qilish davlat idoralari va muassasalarida moliyaviy menejment tizimini o'zgartirishni nazarda tutadi. Bunda byudjetni ijro etishda davlat g'aznaxonasining roli o'zgarishsiz qoladi: mazkur organ idoralar va muassasalarning topshiriqlariga muvofiq to'lovlarni amalga oshirishda va to'lovlarning byudjetda belgilangan ko'rsatkichlarga muvofiqligini ta'minlashda davom etadi.

Tarmoq bo'linmalari va ularning xodimlari (menejerlar) o'zlari amalga oshirayotgan faoliyat jarayonida byudjet resurslarini sarflash va rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun javobgar bo'ladilar. Ular xarajatlarni boshqaradilar. Muayyan byudjetni tasarruf etish uchun oladilar, mazkur mablag'lardan qachon va qay tarzda samarali foydalanishni belgilaydilar va xarajatlarning natijalari uchun hisobot beradilar. Ularning byudjetni tayyorlash jarayonidagi roli ham ortadi. Byudjetni rejalashtirish sub'ektlariga o'rta muddatli moliyaviy rejaga muvofiq yuqoridan tushiriladigan byudjet parametrlari turli yo'nalishlar va tobe muassasalar bo'yicha xarajatlarni taqsimlash bilan muvofiqlashtirilishi, bunda byudjetni ijro etish jarayonida aniq qarorlar qabul qiluvchi sub'ektlar faol ishtirok etishlari lozim.

Moliyaviy menejment sohasida vakolatlar va funktsiyalarni o'tkazish asosiy urg'uni nazorat-taftish boshqarmasi va g'aznaxona tomonidan amalga oshiriladigan tashqi nazoratdan byudjetni rejalashtirish sub'ektlarining o'zi amalga oshiruvchi ichki nazoratga asta-sekin ko'chirish bilan birga amalga oshirilishi lozim. Ichki

nazoratni shunday mustahkamlash kerakki, idoradagi moliyaviy menejment tizimlari samarali ishlayotganiga, ya’ni byudjet jarayonining uzluksizligini, qabul qilingan majburiyatlar bajarilishini, byudjet mablag’lari aniq maqsadlarga yo’naltirilishini va byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishini ta’minlayotganiga BRS rahbarlari va Moliya vazirligining ishonchi komil bo’lsin.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish hozirgi paytda olib borilayotgan byudjet siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biridir. Shu o’rinda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so’zlarini keltirib o’tish joiz: “Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy byudjetlarni mustaxkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidan manfaatdorligi va bu boradagi mas’uliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga rag’batlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustaxkamlaydi”.

Demak, mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish, Hukumatning byudjet siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilik bo’yicha mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibini ko’zdan kechiradigan bo’lsak, yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari, byudjet subventsiyalari va byudjet ssudalari yuqori byudjet harajatlarini rejalashtirish vaqtida, shuningdek, mahalliy byudjetlarni balanslashtirish holatiga qarab, prognozlashtiriladi.

Meros olish, hadya etish huquq bo’yicha davlat mulkiga o’tgan pul mablag’lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan, qaytarilmaydigan pul mablag’lari esa, doimiy xususiyatga ega tushumlar hisoblanmaydi. Shu munosabat bilan mahalliy byudjet daromadlarini prognozlashtirishda asosiy e’tibor, doimiy xususiyatga ega bo’lgan va mahalliy byudjet daromadlarining negizini tashkil etadigan umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, mahalliy soliqlar va yig’imlar, shuningdek, davlat mulki ob’ektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlarga qaratilishi lozimdir.

Ayni paytda hududiy moliya organlarida O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004- yil 22 martdagi 36-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Asosiy soliq turlari bo’yicha Davlat byudjeti daromadlarini rejalashtirish bo’yicha qo’ullanma”dan foydalaniladi. Biroq mazkur qo’llanma ishlab chiqilganidan so’ng soliq qonunchiligida va byudjet tizimida sodir bo’lgan o’zgarishlar tufayli amaliyotdagi prognozlashtirishning hisob-kitob shakllari tegishli ravishda o’zgarib turishini inobatga olmoq lozim. Amaldagi prognozlashtirishning kitob shakllari va turlarini umumlashtirgan holda hamda mavjud ilmiy adabiyotlardan kelib chiqib, byudjet daromadlarini prognozlashtirish usullari to’g’risida to’xtalamiz.

Birinchi usul. Ushbu usulni ekstrapolyatsiya usuli deb ham nomlashadi.. byudjet daromadlarini rejalashtirishda bunday yondashuv ko’p qo’llaniladigan usul hisoblanadi. Oddiy qilib bu usul yordamida byudjet daromadlarini prognozlashtirishni quyidagi shakldagi model bilan ifodalash mumkin.

**Kelgusi davrdagi byudjet daromadlari = bazaviy davrdagi byudjet daromadlari (x) o’sish surati**

Bunda:

- **Kelgusi davrdagi byudjet daromadlari** - byudjet daromadlari qaysi davr uchun prognozlashtirilishi zarurligi. Masalan, kelgusi yil, kelgusi chorak yoki kelgusi oy;

- **bazaviy davrdagi byudjet daromadlari** - o’sish suratini qo’llaganda kelgusi davr daromadlari aniqlanadigan davr. Misol uchun, joriy yil, joriy chorak yoki joriy oy;

- **o’sish surati** - o’tgan davrdagi tegishli o’sish ko’rsatkichlarining bir nechtasi asosida hisoblangan o’rtacha qiymat (o’rtacha tortilgan qiymat).

Masalan, 2013- yil uchun o’sish sur’ati qoida tariqasida, 2010- yildagi daromadlarning 2009- yildagi daromadlarga nisbatan o’sish sur’ati, 2011- yildagi daromadlarning 2010- yildagi daromadlarga nisbatan o’sish sur’ati, 2012- yildagi daromadlarning 2011- yildagi daromadlarga nisbatan o’sish sur’atining o’rtacha qiymati (o’rtacha tortilgan qiymati) asosida aniqlanadi.

Ushbu usulning afzallik tomonlari shundaki, byudjet daromadlariga ta’sir qiluvchi barcha omillar o’tgan davrdagi darajasi doirasida prognozlashtirishda e’tiborga olinadi. Usulning kamchiligi - byudjet daromadlariga tasir qiluvchi omillardagi o’zgarishlar, masalan, soliq stavkasining kamayishi, prognozlashtirishda e’tiborga olinmaydi. Biroq, ashaddiy moliya organlarida ushbu usul orqali daromadlar prognozlashtirilayotganda omillardagi o’zgarishlar, jumladan soliq stavkasining o’zgarishi inobatga olinadi va bu qo’shimcha hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi.

**Byudjet daromadlarini rejalashtirishdagi zamonaviy usullardan biri** “regressiya tenglamalari yordamida prognozlashtirish” usuli deb atash mumkin. Prognozlashtirishdagi mazkur yondashuv ekonometrika predmeti bo’yicha ma’lum bo’lgan regressiya tenglamalari bilan bog’liq.

Regressiya tenglamalari yordamida byudjet daromadlarini prognozlashtirish oldingi usullarga qaraganda murakkab usul hisoblanadi. Bunda, byudjet daromadlarini prognozlashtirish uchun mos keladigan regressiya tenglamasining shakli, byudjet daromadlari va unga ta’sir qiluvchi omillarning kuzatilgan dinamik qatorlaridan kelib chiqib, ekonometrika fanida ko’rsatib o’tilgan tartibda aniqlanadi.

Bu usulga ko’ra byudjet daromadlarini prognozlashtirishga doir quyidagi model shaklini misol tariqasida keltirish mumkin:

**byudjet daromadlari = konstanta + $a_1$ x $omil_1$, + $a_2$ x $omil_2$ + ... + $a_n$ x $omil_n$.**

Bunda:

**konstanta** - regressiya tenglamasini tuzishda aniqlangan konstanta miqdori;

**$a_1$ , $a_2$ , $a_n$** - tegishli omillarning byudjet daromadlariga tasiri koeffitsientlari. Masalan, omil, 1 birlikka o’zgarganda, boshqa omillar o’zgarmay turgan taqdirda, byudjet daromadlarining qanchaga o’zgarishi;

**$omil_1$, $omil_2$ , $omil_n$** - byudjet daromadlariga ta’sir qiluvchi omillar miqdori. Misol uchun, soliq stavkasi, soliq solish obekti va hokazo.

Bunda konstanta va koeffitsientlar maxsus hisob-kitoblar yordamida o’zgaruvchilarning o’tgan davrdagi miqdorlaridan kelib chiqib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Microsoft Exse1, kabi dasturiy paketlarda regressiya tenglamasi koeffitsientlarini aniqlash imkoniyatlari mavjud. Masalan, Microsoft Exse1da Lineyn, Predskaz, Rost,

Naklon kabi funktsiyalari regressiya tenglamalari koeffitsientlarini hisoblash imkonini beradi.

Ayni paytda O'zbekistonda mazkur usulni joriy qilish uchun zarur chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Regressiya tenglamalari koeffitsientlarini statistik jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan darajada aniqlash uchun o'tgan davrdagi kuzatishlar soni ko'p bo'lishi va bir turdagi bo'lishi talab qilinadi. Boshqa tomondan esa, byudjet daromadlariga ta'sir qiluvchi omillar qatorida soliq stavkalari katta ahamiyatga ega va soliq stavkalari, odatda, bir yilda bir marta o'zgaradi. Bu esa kuzatishlar yillik ma'lumotlardan iborat bo'lishi kerakligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan 21 yil davomida milliy statistika tizimimiz xalqaro standartlarga mos ravishda yildan-yilga takomillashtirib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan hozirgi vaqtda regressiya tenglamalari yordamida byudjet daromadlarini prognozlashtirishni joriy qilish imkoniyatlari cheklangan.

Byudjet daromadlarini prognozlashtirishning yuqoridagi usullaridan tashqari, davriy qatorlar (inglizchasi – time series) usuli va Leontev modeli kabi murakkab turlari mavjud. Amaliy ahamiyatining kamligi va bu usullarning mazmunini va ularga muvofiq prognozlashtirish tartibini tushuntirish uchun ko'p ma'lumot berilishi zarurligini inobatga olib, prognozlashtirishdagi ushbu usullar to'g'risida batafsil to'xtalishga hojat yo'q. Hozirgi sharoit davlat byudjeti xarajatlariing manzilliligi va maqsadli sarflanishi ta'minlash byudjet siyosatida strategik ahamiyat kasb etuvchi chora tadbirlardan biriir. Shunday ekan, boshqa xarajatlar kabi iqtisodiyot xarajatlari samaradorligini oshirish, milliy xo'jalikda davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Bugungi kunda mamlakatdagi mavjud ahvolni o'rganib chiqib, byudjet xarajatlarini rejalashtirish jarayonidagi ajratilgan mablag'lardan foydalanish bo'yicha byudjet intizomini buzilishining quyidagi xarakterli ko'rinishlarini keltirish mumkin:

1. Byudjetning ikkinchi darajali xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash oqibatida birinchi darajadagi tadbirlarga mablag' yo'naltirishni kechiktirish;
2. Mahalliy hokimiyat organlari rahbarlarining tazyiqi ostida byudjet mablag'larini byudjet parametrlarida ko'zda tutilmagan xarajatlarga yo'naltirish;
3. Ish haqi, xo'jalik xarajatlari bo'yicha belgilangan byudjet limitlarini oshirib borish;
4. Byudjet mablag'larini bir moddadan ikkinchi moddaga o'tkazish va ulardan noqonuniy tarzda foydalanish.

**Nazorat savollari:**

1. Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Davlat moliyasining bo'g'inlarini izohlang.
3. Moliyaviy siyosat va zamonaviy sharoitlarda u qanday ustuvor yo'nalishlari ega?
4. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

## Foydalanilgan adabiyotlar:
## Maxsus adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari toʻgʻrisida"gi PQ-2270-sonli Qarori (2014 yil 4 dekabr).

2. Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. -Toshkent: "Noshir", 2012 y.- 712 b.

## 3- mavzu: Davlat moliyasi nazariyasi haqidagi ilmiy qarashlarning kontseptual asoslari

**Reja:**

3.1. Mumtoz iqtisod nazariyasi asoschilari U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, P.Buagilber kabilarning ilmiy ishlarida davlat moliyasi nazariyasi.

3.2. Yangi tarixiy maktab kontseptsiyalari mualliflari G.Shmoller, M.Veber, A. Vagnerlarning ilmiy qarashlarida davlat moliyasi.

3.3. J.M. Keyns ilmiy qarashlarida davlat moliyasining talqini.

3.4. Neokeynschilik nazariyasi namoyondalarining davlat moliyasiga oid qarashlari.

3.5. Zamonaviy monetarizm nazariyasida davlat moliyasiga oid ilmiy qarashlar.

✍ **Tayanch iboralar:** *Moliyaviy kontseptsiya, asosiy psixologik qonun, likvidlilik afzalligi, Sey qonuni, buyuk inqiroz, Keynschilik, Domar va Harrod modellari, Neokeynschilik nazariyasi, tsiklik balanslashtirilgan byudjet, Neoklassik maktab, Zamonaviy monetarizm.*

### 3.1. Mumtoz iqtisod nazariyasi asoschilari U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, P.Buagilber kabilarning ilmiy ishlarida davlat moliyasi nazariyasi.

Jamiyatning rivojlanishini turli bosqichlarida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni urganuvchi moliya fani turli davrlardagi iqtisodchi olmlarning tadkikotlari ta'siri ostida shakllanib bordi. Ular tomonidan yaratilgan moliyaviy g'oyalar, nazariyalar jamiyatning real ehtiyojlari bilan tekshirilib borildi va voqelikni real mohiyatini aks etirib berish imkoniyatiga ega bo'lganligi, jamiyat hamda aholi uchun aniq amaliy tavsiyalarga ega bo'lishini natijasida moliya fan sifatida tan olindi. Shu bilan bog'liq holda moliya sohasida ilmiy bilimlarni shakllantiruvchi moliyaviy kategoriyalarning(davlat xarajatlari, davlat daromadlari, soliqlar, kredit, byudjet….) nazariy asoslarini o'rganish zarurdir.

Har kanday davlatlarning amalga oshiradigan moliyaviy siyosati va moliyaviy qonunchiligi asosida iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan moliyaning nazariy asoslari va kontseptsiyalari yotadi.

Davlat harajatlari, soliqlar, kredit, byudjetni iqtisodiyotga ta'sir qilishning nazariy asoslarini zamonaviy talqinlari dastlab mumtoz iqtisod nazariyasi asoschilari U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, P.Buagilber kabilarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan.

Moliyaviy fanlarning asoschisi, A.Smit o'zining fundamental izlanishi hisoblanuvchi «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari» deb nomlanuvchi adabiyotida davlat moliyasining mohiyati haqida alohida tushunchalarni berdi.

Uning ta'qidlashicha «ishlab chiqaruvchi mehnat-bu kapitalga bevosita almashinuvchi mehnatdir, noishlab chiqaruvchi mehnat- daromadga yoki foyda va ish haqiga almashinadi»- deb ta'kidlaydi. Mazkur nazariy xulosadan kelib chikkan holda A.Smit moliyaviy kategoriyalarga (davlatning daromadlari va harajatlariga) tavsif bergan. U soliqlarni vositasida olingan barcha davlat daromadlari noishlab chiqarish yo'nalishlarida harajat qilinishini isbotladi. Shuning uchun ham davlat harajatlari kapitallar jamg'arilishi va milliy daromadni o'sish imkoniyatlarini qisqartiradi. A Smit shakllantirilgan qiymatni noishlab chiqarish sohasiga harajat qilishga olib keluvchi davlat harajatlarini qisqartirish lozimligini va bunday harajatlar ishlab chiqarishni rivojlanishini qisqarishiga olib keladi- degan xulosaga keldi.

Mumtoz iqtisodiy nazariya asoschilari moliyaviy kontseptsiyasining bosh postulati- kapitallar jamg'arilishi uchun zaruriy iqtisodiy shart sharoitlar yaratilishi lozim

A.Smit Davlat daromadlarini shakllantirishning solikli usulining nazariy asoslarini shakllantirdi. Solikka tortish tamoyillarini ishlab chikdi. Uning fikricha istemol tovarlariga egri soliqlar ularning narxini o'sishiga olib keladi. Natijada ishlab chiqarishdagi muomala harajatlarining o'sishiga va oqibatda ularni sotishning qisqarishi hamda iste'molning qisqarishiga olib keladi[20].

Shuningdek, Smitning soliq kontseptsiyasi bir maqsadga buysunadi ya'ni kapitallar jamg'arilishini rag'batlantirish va ishlab chiqarish rivojlantirishni tezlashtirish masalalarini qamrab oladi.

Mumtoz iqtisodchi, D.Rikardo ham mehnat qiymati nazariyasidan kelib chiqqan holda har kanday soliqlar kapitalga yoki daromadga ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Agar soliqlar kapitaldan olinsa ishlab chiqarishni ta'minlash uchun mo'lljallangan fond kamayadi. Daromaddan soliq to'lansa, kapitallarni jamg'arilishi qisqaradi yoki soliq to'lovchining iste'moli qisqarishini ta'kidlaydi[21].

Mazkur ikki iqtisodchining fikricha, soliqqa tortish va davlat harajatlarining o'sishi halq iste'molining pasayishiga va oxir oqibatda bu ishlab chiqarishda o'z aksini topishini ta'qidlaydilar. Shuning uchun hukumatning asosiy vazifasi kapitallar jamg'arilishini rag'batlantirish bo'lishi lozimligini ilgari surdilar.

Mumtoz iqtisodiyot asoschilari davlat moliyasiga nisbatan iqtisodiy siyosatning rasmiy kontseptsiyalarini aniqlaydi. 18 va 19 asr ilg'or mamlakatlarning moliyaviy siyosati davlatning mamlakat xo'jalik hayotiga aralashuvini qisqartirishini o'zida aks ettiradi. Bunday siyosat hozirgi kundagi o'tish davrini boshdan kechirayotgan O'zbekiston milliy iqtisodiyotining moliyaviy siyosatini iqtisodni erkinlashtirish jarayonidagi asosiy vazifalariga muvofiq keladi.

Ingliz iqtisodchisi Jon Styuard Mill mamlakatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni susaytirish maqsadida daromadlarni taqsimlash sohasida o'zgartirishni amalga oshirish lozimligi haqidagi taklifni ilgari suradi. Boylikni teng taqsimlash uchun

[20] David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p.302

[21] Alan J. Auerbach Public Finance in Practice and Theory.-University of California, Berkeley, May 2009, p.152

oqilona soliq tizimining yangi tamoyillarini ishlab chikdi va mazkur iqtisodchi birinchilar katorida daromadni soliqka tortishda soliqka tortilmaydigan minimumni kiritish g'oyasi ilgari surdi va mazkur minimum yashash uchun zaruriy bo'lgan daromadga teng bulish kerakligini takidlaydi. J.S.Mill «Xizmatlarning soliq nazariyasi» ni ishlab chiqib unga muvofiq har qanday odam davlatning qo'llab quvvatlashi natijasida olgan daromadidan bir qismini soliq sifatida tulashi lozimligini ta'qidlaydi. U soliqlarni davlat harajatlari bilan mustaxkam bog'liqligini tadqiq qildi.

Mazkur nazariyalarni keyinchalik shved iqtisodchilari K. Viksel, V. E. Lindal mazkur nazariyalari rivojlantirdilar. Hozirgi vaktda bu nazariya amerikalik iqtisodchi P. Samuelson qarashlarini shakllanishiga ta'sir qildi va uning fikricha soliqlarning o'sishi davlat xizmatlariga ehtiyojlarning o'sishi bilag birgalikda borishi zarur deb ta'qidlaydi.

Kichik tovar xo'jaligini ximoya qilish bo'yicha shveytsariya iqtisodchisi Jak Sismondining ta'qidlashicha rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy siyosati tanqid qilinadi. Ayniksa uning qarashlarida protektsanizm siyosatini salbiy oqibatlari o'z aksini topgan. Uning ta'qidlashicha, bunday siyosat millatning rivojlanishi uchun zararli deb hisoblaydi. J.Sismondi mamlakat iqtisodietidagi katta rol uynovchi o'sib boruvchi yirik kapitallar mazmunini to'g'ri baholay olmadi.

**3.2. Yangi tarixiy maktab kontseptsiyalari mualliflari G.Shmoller, M.Veber, A. Vagnerlarning ilmiy qarashlarida davlat moliyasi.**

Yangi tarixiy maktab kontseptsiyalari G.Shmoller, M.Veber, A. Vagner va boshqalar tomonidan shakllantirilgan. Davlat moliyasi tadqiqotlari A.Vagnerning izlanishlarida qo'proq mavjud bo'lib, u davlat yordamida kapitalllar jamg'arilishining moliyaviy imkoniyatlarini tadqiq qilgan. Davlat faoliyatining «ma'muriy, ijtimoiy, madaniy va investitsion» kengayish yo'nalishi bo'yicha M. Vagner soliqka tortishning to'qqizta tamoyilini ishlab chiqdi va guruhladi. Ularni 4 ta asosiy bo'limga guruhlab chiqqan: etarlilik va harakatchanlik; ob'ektning tanlovi; umumiylik va tenglik; aniqlilik va qulaylik;

Ular ma'no jihatdan Smitning mashhur tamoyillarini to'ldiradi.

Umuman olganda, yangi tarixiy maktab namoyondalari A.Smit tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarni to'ldirdilar. Mumtoz iqtisodchilar nazariy qarashlarida ilgari surgan holda A. Vagner hisoblaydiki, moliyadan - davlat tomonidan mamlakatdagi daromadlar va boyliklarning xaqqoniy taqsimlanishiga erishish uchun foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi.

**4.3. J.M. Keyns ilmiy qarashlarida davlat moliyasining talqini.**

XX asrning birinchi yarmida vujudga kelgan jahon iqtisodiy inqirozi ingliz iqtisodchisi J.M.Keyns nazariyasi asosidagi o'zining samarali echimiga ega bo'ldi. J.Keynsning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmiga bo'lgan ehtiyojni qo'llab- quvvatlovchi nazariyasi yangi moliyaviy kontseptsiyalarni shakllanishiga va moliyaviy siyosatni ishlab chiqishga

chukur ta'sirini o'tkazdi. J. Keyns kontsetsiyasining asosida «Samarali talab»[22] g'oyasi yotadi. Keyns o'zining nazariyasida mamlakat kuchli iqtisodiy inkiroz bilan bog'liq nobarkaror rivojlanish sharoitida davlatning aralashuvini zarurligini asoslaydi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvini asosiy instrumenti sifatida moliyaviy kategoriyalardan foydalanishni, birinchi navbatda davlat harajatlaridan foydalanish lozimligi g'oyasini ilgari suradi. Soliklar va davlat zayomlarini o'sishi hisobiga davlat harajatlarining o'sishi «samarali talab»ga erishishning muhim olimi hisoblanadi deb ta'kidlaydi. Iqtisodchining ta'qidlashicha, soliqlar va zayomlar hisobiga davlat harajatlarinig o'sishi  tadbirkorlik faoliyatini jonlantirishga va milliy daromadni o'sishiga, ishsizlikni oldini olishga olib keladi deb ta'kidlaydi. Bu maqsadlarga erishish uchun davlat nafaqat o'zining harajatlarini ko'paytirish lozim, balki shaxsiy va investitsiya iste'moliga ta'sir qilishi lozim deb ta'kidlaydi.

J Keyns soliqlarga va ularni odamlarning is'te'molini ko'paytirish ishtiyoklariga muvofiq «psixologik qonun» asosidagi ta'siriga alohida ahamiyat bergan. Davlat bu qonunni salbiy oqibatlariga karshi tadbirlar ishlab chiqishi va soliq tushumlari, davlat zayomlari hisobiga davlat harajatlarini ustirib etishmayotgan talabni qoplashi yoki turli usullar vositasida xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishi lozim[23]. Uning formulasi quyidagicha:

*Jamg'armalar + Soliqlar = Investitsiyalar + Davlat harajatlari;*

Shuningdek, J. Keyns monopoliyalashgan iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishga yo'naltirilgan davlat moliyasining tamoyilial yangi bo'lgan nazariyasini ishlab chikdi.

Iqtisodchi, davlat arbobi bo'lgan Keyns Iton va Kembridj universitetlarida iqtisodiyot va matematikadan ta'lim oldi, A.Marshall qo'lida o'sdi (1902-1906, 1909-1915 yillarda o'qituvchilik qildi, 1920 yildan Kembridj universitetida professor, 1913-46 yillarda iqtisodiy jurnal muharriri bo'lib ishladi. 1909 yil «Indeks uslubi» iqtisodiy maqolasi, 1913 yilda uning birinchi asari — «Pul muomalasi va Hindiston moliyasi» kitobi chop etildi. 1919 yilda «Versal tinchlik shartnomasining iqtisodiy oqibatlari» nashr etilishi bilan u iqtisodchi sifatida ko'pchilikka tanildi. Bu asarida u shartnomaga nisbatan bir qancha tanqidiy fikrlar bildirgan edi. Keyns 20-30-yillarda iqtisodiyotga oid bir nechta kitoblar yozdi («Ehtimollik to'g'risidagi risola» (1921), «Pul islohoti to'g'risida risola» (1923), «Mister Cherchelning iqtisodiy oqibatlari» (1925), «Erkin tadbirkorlikning ixtirosi» (1926), «Pul to'g'risidagi risola» (1930) va boshqalar), ammo unga mashhurlik keltirgan bosh asari - «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) kitobidir. 1940 yilda «Urush harajatlarini qanday qoplash mumkin» degan kitobi ham nashr etildi. Bu asarlardagi bosh masala kapitalizmni oqlash, uning inqirozlarsiz rivojini ta'minlashning abadiyligini isbotlashga urinishdir. Uning yaratgan nazariyasi iqtisodiyot ta'limotlari tarixida alohida o'rin egallaydi va bu o'ziga xos inqilob bo'lib, hozirgi davrda ham ahamiyatlidir. Keyns asosiy asarining boshidayoq klassik maktabga qarshi ekanligini bayon etdi.

Keyns ta'limotining asosiy va yangi g'oyasi  shuki, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi mukammal va o'z-o'zini avtomatik ravishda tartibga sola olmaydi. Shu sababli

---

[22] Keynes, John Maynard. 1936. *The General Theory of Employment, Interest, and Money.* New York: Harcourt Press.

[23] David N. Hyman  Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy,  Tenth Edition, South-Western Cengage Learning Mason, USA, 2011, p.153

maksimal darajada bandlikni va iqtisodiy o'sishni faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi ta'minlay oladi. Bu ish davridagi amaliy iqtisodiyotdagi aniq ahvol bilan chambarchas bog'liq edi. Etakchi olimlarning ta'qidlashicha (J.K.Gelbreyt, M.Blaug), firmalar, monopoliya va oligopoliyalar faoliyatidagi tengsizlikka nisbatan kichik doiradagi odamlarning faoliyati bilan bog'liq, bu tengsizlik tamoyilda davlatning aralashuvi bilan to'zatilishi mumkin edi. Aslida u iqtisodchi, Marshallning — Kembridj maktabining davomchisi, ammo yondashuv boshqacha. Asosiy nazariy muammolar qiymat, kapital, ish haki va boshqalar bo'yicha asoslanadi. Qiymatning mehnat nazariyasini, qo'shimcha qiymatni inkor etadi, uni ishlab chiqarish omillari kontsep-tsiyasi bilan almashtiradi. Keyns kapitalizm bozor iqtisodiyoti illatlarini to'g'rilash uchun davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi tarafdori bo'lib chikdi. Vaholanki, avvalgi olimlar (klassik maktab) buni inkor etganlar va inqirozni tasodifiy voqea deb hisoblaganlar. Avvalgi tadqiqotchilardan farqli ravishda «samarali talab»ni, ya'ni iste'mol va jamg'arishni birinchi o'ringa qo'yadi. Yuqorida qarab chiqilgan iqtisodiy ta'limotlardan biri — merkantilizimda davlatning iqtisodiyot (siyosat)ga aralashuvi talab etiladi, protektsionizm iqtisodiy siyosati shuni talab etadi. J.M.Keyns u yaratgan kontseptsiyaga merkantilistlarning ta'sirini inkor etmaydi. Ikkala ta'limotdagi umumiy g'oyalar quyidagilardan iborat:

Mamlakatda pul masalasini ko'paytirish uchun intilish (pulning qadrini biroz pasaytirish) va shunga muvofiq ssuda foizini kamaytirish va ishlab chiqarishga investitsiyalarni qo'yishni rag'batlantirish vositasi sifatida, baho (narx-navo)lar oshuvini qo'llash (savdo va ishlab chiqarishni rag'batlantirish usuli sifatida), pulning etishmasligi ish-sizlik sababi deb tan olinadi hamda iqtisodiy siyosatning milliy (davlat) xususiyatiga ega ekanligi tushuniladi. U tadqiqotning makroiqtisodiy uslubini, ya'ni makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lgan milliy daromad va jamg'armalar o'rtasidagi bog'lanish hamda nisbatlarni tadqiq qilish g'oyasini ilgari surdi. Bu tadqiqot usuli o'z davrida fiziokratlar (F.Kene, A.Tyurgo) K.Marks tomonidan qo'llanilgan Keynsgacha mikroiqtisodiy yondashuv, ("ya'ni alohida xo'jalik ob'ektlari bo'lgan firmalar iqtisodiyotini tahlil etish rasm bo'lgan edi. Firmaning rivoji millat mam-lakat ravnaqi bilan bir deb qaralar edi. Asosiy e'tibor umumiy iqtisodiyotga emas, balki firmaga qaratilgan edi. Keyns ta'limoti iqtisodiy siyosat bilan chambarchas boqliqdir. Agar Marks kapitalistik tizimning emirilishini bashorat qilgan bo'lsa, Keyns kapitalizm muhandisi sifatida uni ta'mirlash yo'lini aniqlab berdi. Davlat tomonidan rag'batlantiraladigan talab «samarali talab» kontseptsiyasi ilgari suriladi.

Kapitalizmning bosh illatlari bu ishsizlik va inqirozlardir, Keyns bularning sabablarini sohibkorlar psixologiyasidan topishga intiladi. Inqirozlar kapitalistning kayfiyatiga qarab ro'y beradi, ya'ni optimizmdan pessimizmga o'tganda bo'ladi. Asosiy e'tibor «iste'molga moyillik» va «jamg'arishga moyillik»ka qaratiladi.

Keynsning umumiy bandlik nazariyasi quyidagilarga asoslanadi:

Ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad va iste'mol ortadi, ammo iste'mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad ortishi bilan «jamg'arishga intilish» kuchayadi. Uningcha, asosiy psixologik qonun shundan iboratki, odamlar odatda daromadlar ortishi bilan iste'molni ham o'stiradi, ammo bu o'sish daromadlar darajasida bo'lmaydi. Oqibatda daromadlar o'sishi bilan jamg'arish ortadi va iste'mol nisbati

kamayib boradi. Oxirida esa «samarali talab» kamayadi, talab shunday yo’l bilan ishlab chiqarish hajmlariga va bandlik darajasiga ta’sir etadi. •

Iste’mol talabining etarlicha o’smasligi yangi investi-tsiyalarga harajatlarning oshuvi yo’li bilan qoplanishi, ya’ni ishlab chiqarish iste’molining ishlab chiqarish vositalariga qarab oshuvi yo’li bilan qoplanishi mumkin. Shu sababli in-vestitsiyalarning umumiy hajmi bandlik hajmini belgilashda hal qiluvchi rolni o’ynaydi. Keynsning fikri bo’yicha investitsiyalar hajmi investitsiyalarga bo’lgan intilishga bog’liq.

Qiyinchilik shundaki, kapitalning rentabelligi pasayadi, foiz darajasi esa mo’’tadil bo’ladi. Bu holat yangi investitsiyalar uchun imkoniyatni pasaytiradi, demak, bandlik o’sishi ham kamayadi. Kapital «eng yuqori samaradorligi»ning pasayishi kapital massasining o’sishi, shuningdek, kapitalist-tadbirkorlarning bo’lajak daromadlariga ishonchsizlikka «moyilligi» bilan tushuntiriladi. Keyns ta’limoti bo’yicha bandlikning umumiy hajmi uch omilga — «iste’molga moyillik», «eng yuqori samaradorlik» va foiz me’yoriga bog’liq.

Keyns ochgan «asosiy psixologik qonun» uningcha, istalgan jamiyat uchun qo’llanilishi mumkin va iste’mol talabining kamomadi asriy tendentsiyaga ega hamda barcha uchun yagona iste’mol qonuni mavjuddir.

«Kapitalning eng yuqori samaradorligi», qo’shimcha kapital birligi tomonidan vujudga keltiriladigan bo’lajak foydaning shu birlikka ketgan ishlab chiqarish chiqimlariga nisbatidir. Keynsning fikricha, daromad, foyda keltiradigan narsalar kapital hisoblanadi (boshqa omillarda ham shunday). Uningcha, kapital noyobligi, ya’ni cheklanganligi tufayli foyda keltiradi. Kapitalning ko’payishi borasida uning samara-dorligi yoki foydaliligi kamayib boradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida va kapitalning tez jamlanishi tufayli bir avlod umri davomida «kapitalning eng yuqori samaradorligi» nolga tenglashishi mumkin, deydi u. Kapitalning samaradorligi psixologik omillarga bog’liq ekan, endi kapitalistning o’z korxonasining kelajagiga beradigan bahosi uning kayfiyatiga qarab o’zgaradi.

Keyns foizga alohida e’tibor beradi, uni pul qarzi uchun berilgan haq deb hisoblaydi. Foiz uningcha, muomaladagi pul miqdoriga va «likvidlilik afzalligi»ga bog’liq (likvidlilik - pulga tez aylana olish, qadrlilik demakdir). Uning miqdori «likvidlilik afzalligi»ga to’g’ri va muomaladagi pul miqdoriga teskari proportsionaldir.

Keynsning fikricha, foiz me’yori ma’lum davrga likvidli-likdan, ya’ni boylikning likvid, pul shaklidan voz kechish hisobiga beriladigan mukofotdir. Boylikning pul shakli eng harakatchan va qulaydir, shu sababli kapitalist doim o’z boyli-gini pul shaklida saqlashga va undan ajralmaslikka intiladi. Mana shu niyat, mana shu ishtiyoq Keyns tomonidan «likvidlilik afzalligi» deb ataladi. Bu kapitalist likvid shaklda saqlamoqchi bo’lgan resurslarning miqdori bilan o’lchanadi.

Keynsning umumiy nazariyasida investitsiyalarning umumiy bandlik hajmini aniqlashdagi asosiy roli to’g’risidagi tezis muhimdir. Ular iste’mol talabining etarli emasligini to’ldirishi (kompensatsiyalash) kerak. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish masalasi iste’mol talabi oshuvidan alohida qaraladi. Investitsiyalarning ko’payishi ishlab chiqarishga qo’shimcha ishchilarni jalb etishga olib keladi, bu esa bandlik, milliy daromad va iste’mol o’suvini ta’minlaydi. Yangi investitsiyalar tufayli bandlikning dastlabki o’suvi yana qo’shimcha bandlikni vujudga keltiradi, chunki qo’shimcha ishchi-larning talabini qondirish zarurati tug’iladi. Qo’shimcha bandlikning o’sish

koeffitsientini Keyns multiplikator deb ataydi, u bir tomondan investitsiyalar o'sishi, ikkinchi tomondan bandlik va daromadlarning o'sishi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi. Multiplikatorning formulasi

$$KYw = KJw '$$

bunda,

K - multiplikator koeffitsienti,

Yw — daromad o'sishi;

Jw — investitsiya o'sishi.

Multiplikator «iste'molga eng yuqori moyillik» bilan bog'liq, chunki u iste'molga ketgan sarflar o'sishining daro-madlar o'sishiga nisbatini bildiradi. «Iste'molga eng yuqori moyillik» qancha yuqori bo'lsa, multiplikator ham shunchalik katta va demakki, bandlik yaxshi bo'ladi. Keyns bir qancha hisob-kitoblarga asoslanib, AKShning multiplikatorini aniqladi, u 2,5.ga teng ekan. Bu daromadlar o'sishi investitsiyalar ortishidan 2,5 marta ortiq, degani,ya'ni 1 dollar investitsiya 2,5 dollar daromad keltiradi. Olim o'zining iqtisodiy dasturini ilgari suradi. Unga ko'ra Keyns kapitalistik jamiyatda ishsizlik va inqirozlarning muqarrarligini tan olmaydi. Ammo kapitalistik tizim mexanizmi bu voqealarni avtomatik ravishda hal etish imkoniyatiga ega emas. Hozirgi davrda shaxsiy tashabbus asosida echiladigan masalalarni markazlashgan nazorat asosida hal qilish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Bunda davlat soliq tizimi, foiz me'yorini qisman cheklash, ya'ni boshqa yo'llar bilan iste'molga moyillikni oshirishga yordam berishi kerak, deydi u.

Hozirgi davr tili bilan aytganda, Keynsning fikricha, bozor iqtisodiyotida talab va taklif avtomatik tarzda muvozanatga kelmaydi. O'z davrida J.B.Sey va biz yuqorida ko'rib chiqqan boshqa olimlar bu masalada yagona fikrda bo'lib, har qanday taklif o'z-o'zidan talabni yaratadi («Bozor qonunlari») degan edilar. Keyns «Sey qonuni»ga qarshi chiqadi, uni to'g'ri tanqid ostiga oladi.

Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish uchun foiz norma-sini tartibga solish taklif etiladi. Uningcha, davlat muomaladagi pul miqdorini oshirish yo'li bilan foiz darajasini tartibga solish imkoniyatiga ega. Muomaladagi pul miqdorini oshirish amalda inflyatsiya (pulning qadrsizlanishi)ni qo'llash demakdir, ammo bunda ssuda foizi kamayadi va pul ishlab chiqarishga qo'yish uchun rag'batlantiriladi.

To'la bandlikni ta'minlash uchun faqat investntsiyalarning emas, balki milliy daromadni ham tartibga solish taklif etiladi. Buni hal qilish vositasi sifatida soliqlarga murojaat qilish kerak deyiladi. Aholining «jamg'armalari»ni muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni oshirish talab etiladi va bu omonatlar davlat investitsiyalarini oshirish uchun foydalanilishi mumkin deyiladi. Shu vaqtning o'zida boy-larning solirini oshirishga qarshilik qilinadi. Keyns o'z taklifini quyidagicha tushuntiradi: Mehnatkashlarning so-liqlarini oshirishdan maqsad — ularning «jamg'armalari»ni kamaytirish va iste'molini rag'batlantirishdir. Haqiqiy ish haqini pasaytirish uchun inflyatsiya asosida narx-navoni oshirish yo'li tavsiya etiladi. Real ish haqini pasaytirmasdan to'liq bandlikni ta'minlash mumkin emas, degan fikr ishchilarga uqtiriladi. Daromadlilikning pasayib borishi tufayli bandlikning birmuncha ortishi ilgari band bo'lganlarning real daromadlari qisqarishi bilan bog'liq. Keyns ishchilarga murojaat qilib, ish haqini oshirish uchun ko'rashish kerak emas, deydi, chunki bu jami haqiqiy ish haqining ishchilarning turli guruhlari o'rtasida qayta taqsimlanishiga olib

keladi, uning o'rtacha miqdori esa o'zgarmaydi. U ish haqini «o'zgartirmaslik» siyosatini o'tkazish va shu yo'l bilan narx-navo o'sishi sababli ish haqini oshirish talablarini yo'qqa chiqarishni taklif etadi. Uningcha, ishchilar haqiqiy ish haqining pasayishiga chidashlari kerak, chunki shu yo'l bilan ishsizlikning oldi olinadi. Kapitalistlarga esa haqiqiy ish haqini pasaytirishning ahamiyati tushuntiriladi. Keyns bundan tashqari nominal ish haqini pasaytirishga ham qarshi emas edi.

Ishsizlik va inqirozlarga qarshi ko'rash bahonasida unumsiz iste'molning barcha ko'rinishlari turli yo'llar bilan reklama qilinadi. Iqtisodiyotni harbiylashtirish bilan birga hukmron sinflarning iste'molini oshirish ana hunday yo'llar guruhiga kiritiladi.

Keynsni hozirgi davrda hammaga yaxshi tanish ibora bo'lgan «aralash iqtisodiyotning otasi deyish mumkin, bu iqtisodiyotda hukumat hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Sof iqtisodiyot deyarli hech qaysi davlatda yo'q. Keynsning iqtisodiy g'oyalari birinchi navbatda «buyuk inqiroz» ta'siri ostida paydo bo'ldi. 1929-1933 yillardagi bu buyuk inqiroz Amerikani larzaga keltirdi, ishlab chiqarish yarmiga (50%)ga qisqardi, 17 mln odam ishsiz edi (25%), 9 mln omonatchi kuyib qoldi. Ana shunday sharoitda iqtisodiyotni qutqarishning muhim yo'li — hukumat harajatlari ekanligi ko'rsatib berildi. Keyns o'zining asosiy asarining birinchi satrlaridan boshlaboq «klassik iqtisodiy maktabga qarshi» ekanligini yozadi (ayniqsa davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasida turli fikrlar mavjud) .

Keyns yaratgan sifat jihatidan yangi ta'limotda o'sha davrda aosan shaxsiy xususiy tashabbusga berilgan masalalarni nazorat qilish uchun markazlashgan nazoratni yaratishni hayotiy zarurat ekanligi ko'rsatiladi. Davlat iste'molga moyillikni oshirish uchun, qisman, mazkur soliqlar tizimi orqali, qisman foiz normasini belgilash va boshqa mumkin bo'lgan usullar yordamida o'z rahbarlik ta'sirini o'tkazishi kerak bo'ladi. Chunki mavjud sistema (tizim) eng muhimi hozirda ishlayotganlar mehnatini taqsimlashda emas, balki bandlik hajmini aniqlashda yaroqsiz bo'lib qoldi, deb yozadi Keyns.

Ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, er) qanchalik to'la jalb etilsa, amalda o'sib boruvchi baholarga ega bo'lamiz (pulning miqdoriy nazariyasi). Resurslar to'liq foydalanilmagan paydo baholarning mo'tadilligi saqlanish mumkin.

Keyns nazariyasi bo'yicha massasini 2 marta oshirish baholarning 2 marta oshuviga olib kelmaydi. Etakchi iqtisodchilar fikricha, «Keynscha inqilob haqikatda ro'y bergan».

**Frantsiyadagi keynschilik xususiyatlari.** XX asrning 40-yillari Keyns g'oyalari Frantsiyada ham shuhrat qozondi. Keyns g'oyalarini to'laligicha {G.Ardan, P.Mendes-Frans) qabul qilganlar ham bo'ldi. Ba'zilari (F.Perru) ssuda foizini tartibga solishni samarasiz deb hisobladilar, bundan ko'ra iqtisodiyotni rejalashtirish taklif etildi. Bunda davlat nuli bilan tartibga solishni monopolistik kapitalning xususiy manfaatlariga moslashtirish kerak deyiladi. Frantso'z olimlari imperativ va indikativ rejalashtirishni ajratishadi. Imperativ rejalar direktiv xususiyatga ega (sotsialistik rejalashtirish). Indikativ rejapashtirishda reja markazi asosiy maqsadlarni belgilaydi va turli uslublar bilan tadbirkorlarni ma'lum hatti-harakatlarga yo'naltiradi. Ular faqat davlat sektoridagi korxonalar uchun zaruriy hisoblanadi (Hindiston, Malayziya va boshqa bir qancha kapitalistik mamlakatlarda shu usul qo'llaniladi). Uzoq muddatli prognozlar va rejalar to'zish keng qo'llanilmokda.

Keyns uslubi kapitalizmdagi iqtisodiy inqirozlarning oldini olishga qaratilgan edi, ammo II Jahon urushidan keyin AQSh va boshqa mamlakatlarda bu inqirozlar davom etmokda. 1948-1949, 1953-1954, 1957-1958, 1960-1961, 1967, 1969-1971, 1974-1975 va 1981-1982 yillardagi hamda boshqa inqirozlar bu fikrimizning dalilidir.

Bular Keyns ta'limotini tanqid qilish uchun asos bo'ldi. Masalan, S.Harrisning fikricha, Keyns barcha qiyinchiliklarni hisobga ola olmagan, masalan, to'la bandlikka erishish haqida ran boradi-yu, qanday qilib uni doimo ta'minlash haqida taklif yo'q, inflyatsiyaning eng katta darajasi noaniq, davlat qarzlarining chegarasi ham berilmagan.

Hozirgi davr keynschiligida ikkita tendentsiya xukmron olib hisoblanadi:

1) AKShning bir qator iqtisodchilari nomi bilan bog'liq amerika keynschilari

2) avvalo Frantso'z tadqiqotchilari nomi bilan bog'liq Evropa keynschilari.

**Keynschilikning AQShdagi xususiyatlari. Iqtisodiy o'sish nazariyalari.** 50-yillarda keynschilik g'oyalari rivojlantirilib, yangi g'oyalar ilgar surildi. Ularning asosiy mohiyati iqtisodiy o'sish sur'atlari doimligini ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlash va isbotlashdan iboratdir. Oqibatda «multiplikator-akselerator» tizimini hisoblashga asoslangan va o'ziga xos keynschilikning o'sish nazariyalari, jamg'arish hamda iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'lanish harakteristikalaridan foydalanib iqtisodiy dinamikani modellashtirish yuzaga keldi.

Yuqorida tilga olingan iqtisodiy o'sish nazariyalarining asosiy namoyondalari Massachuset texnologiya instituti professor Evsey Domar (1914) va Oksford universiteti professori Robert Harrod (1890-1978) hisoblanadi. Ularning nazariyasi (modeli) iqtisodiyotning doim (mu'tadil) sur'atlarda o'sishi dinamik barqarorlik (ilgarilab borish)ning asosiy sharti sifatida maqsadga muvofiq ekanligining umumiy xulosalarini birlashtiradi. Ularning fikricha, shundagina ishlab chiqarish quvvatlari va mehnat resurslaridan to'la foydalanishga erishish mumkin. Harrod Domar modelining boshqa bir qoidasi bo'yicha ayrim parametrlar, chunonchi daromadlardagi jamg'arma hissasi va kapital qo'yilmalarning o'rtacha samaradorligi uzoq davr mobaynida doim deb tan olinishi hisoblanadi. Mualliflar dinamik barqarorlik va doimiy o'sishga erishish avtomatik ravishda bo'lmasligi, balki davlatning shunga muvofiq siyosati natijasida, ya'ni davlatning iqtisodiyotga faol ishtiroki tufayli ro'y berish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Domar va Harrod modellaridagi farq-boshlang'ich pozitsiyalardagi ayrim ko'rsatkichlardir. Masalan, Harrod modelida investitsiya va jamg'armalar tengligi g'oyasi, Domarda esa pul daromadlari (talab) va ishlab chiqarish quvvatlari (taklif) teng deb qabul qilinadi. Ikkala olim shunga ishonchlari komilki, daromad o'sishini ta'minlashda investitsiyalar roli, ishlab chiqarish quvvatlarining oshirilishi faoldir, bunda shu narsa ko'zda to'tiladiki, o'sish bandlikka yordam beradi, bu esa o'z yo'lida, korxonalarning yarim quvvat bilan ishlashi va ishsizlikning oldini oladi. Bu Keynsning shu sohadagi kontseptsiyasini so'zsiz tan olishdir, chunki Keyns bo'yicha, iqtisodiy jarayonlar investitsiya va jamg'armalar orasidagi proportsiyalar xususiyati hamda dinamikasiga bog'liq aniqroq aytilsa, investitsiyalarning ildam o'sishi, baholar darajasi o'sishiga sabab bo'ladi, jamg'armalar o'sishi esa korxonalarning to'la ishlamasligi va ishsizlikning sababidir.

**Keyns g'oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati.** Shuni aniq qilib aytish kerakki, Keyns ta'limoti inqirozlar, urushlar va urushdan keyinga davrlar uchun samarali bo'ldi,

chunki favqulotda holatlar davrida davlatning roli kuchli bo'lishi kerak. Amalda esa ayniksa, 2-jaxrn urushidan sung Fap6 mamlakatlarini sotsialistik orentatsiyasi kuchaydi (davlat mulki oshib bordi), davlat byudjeta k.arzlari ko'payib, ishsizlik ham o'sgan, inflyatsiya kuchli. Bu ijtimoiy ishlarni ko'paytirishga karatilgan tadbirlar oqibatidir deb tan olinmokda. Ishsizlikning ish x.ak.ini pasaytirish yo'li bilan etish tarafdorlari ham mavjud, ammo pul massasini ko'paytirish (inflyatsiyaga olib keladi), ya'ni emissiya yo'li ko'pchilikka oson kurinadi. Bu kontseptsiya ma'lum davr mobaynida inflyatsiya bulmagan holda mine-mal ishsizlik darajasini isbotlashga imkon beradi.

### 3.4. Neokeynschilik nazariyasi namoyondalarining davlat moliyasiga oid qarashlari.

Neoklassik maktabning rivojlanishiga karamasdan keynschilik ta'limoti yangi iqtisodiy sharoitlarga mos holda rivojlanib bormokda. 1970 yillardan postkeynschilik yo'nalishi shakllandiki ularning namoyondalari N.Kaldor, G.Shekl, X.Minskiy va boshqalardir. Postkeynschilik nazariyasining asosida moliyaviy mexanizm vositasida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kengaytirish g'oyasi yotadi. Moliyaviy siyosat bosh ahamiyatga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar va monopoliya faoliyatini cheklashga, mudofaa harajatlarini qisqartirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar. «Daromadlar siyosati»ga nisbatan ular ijtimoiy masalalarni xal qilishga karatilishi lozimligini e'tirof etadilar. N.Kaldorning soliqka tortish tizimini soddalashtirish g'oyasi kator mamlakatlar soliq tizimida qo'llanilmokda.

Ko'p davlatlar iqtisodiyotini denatsionalizatsiya qilish kuchaydi (nodavlat shakllariga o'tildi). Buning oqibatida Buyuk Britaniya (Tetcherizm), Frantsiya, Yaponiya, Chili (Pinochet), Ispaniya va boshqa mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimallashtirildi va iqtisodiy ahvol yaxshilandi.

Keynsning izdoshlari 60-yillarda uning nazariyasiga kushimcha dinamik element hisoblanuvchi, «iqtisodiy o'sish nazariyasi»ga asos soldilar. Neokeynschilik nazariyasi deb nomlanuvchi mazkur yo'nalishda ko'pgina mamlakatlarning iqtisodchilari (AKShda- A. Xansen, S.Harris, Buyuk Britaniyada- R.Harrod, A. Ilersik, Frantsiyada- F.Perru) tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy kontsetsiya muhim urin egallaydi. Ular fiskal antitsiklik nazariya g'oyasini shakllantirishni oxiriga etkazdilar. Uning mohiyati davlat daromadlari va harajatlarini balanslashtirilgan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida o'zgartirishni ko'zda tutadi. Ular «samarali talab»ga erishish usuli sifatida «kamomadli moliyalashtirish» g'oyasida kattik turib oldilar. Mazkur nazariyaning shakllanishi aksariyat davlatlar tomonidan vujudga keluvchi byudjet kamomadini ob'ektiv xol sifatida tan olinishini anglatdi. Har qanday soglom iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatda ham ma'lum chegaralarda byudjet kamomadi mavjud bo'lishi iqtisodiyotni kasallagini anglatmasligini isbotladilar. Ular davlat karzlarini o'sishini hisobga olmagan holda yirik davlat harajatlarining zaruratlarini isbotladilar. Birok, surunkali harakterdagi yirik byudjet kamomadi, Stokgolm maktabi deb nomlanuvchi (E. Lindal, G.Myural va boshqalar) iqtisodchi olimlarning byudjet muammosini echishga karatilgan yangi g'oya uchun majbur qildi. Bu maktab "Tsiklik balanslashtirilgan byudjet" ya'ni daromad va harajatlarni iqtisodiy tsikllarga moslashtirish nazariyasini ilgari surdilar.

Neokeynschilarning asosiy talablari mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish va rag'batlantirish uchun davlat byudjetidan faol foydalanish lozim deb hisoblaydilar.

Ammo shuni ta'qidlash joizki, 70-80 yillardagi iqtisodiy inkiroz sabablarini Keyns va uning izdoshlarini nazariyalari xal qilish imkoniyatlariga ega emas edi.

50 yillardan sung Neokeynschilik nazariyasi bilan birgalikda neoklassik nazariya jonlandiki ularning g'oyalarida erkin tadbirkorlik va davlatning iqtisodni tartibga solishini cheklash g'oyalari yotar edi. Neoklassik maktab nazariyachilari (R.Slou, J.Kenrik, A.Robbins, J.Mid) davlatning iqtisodga aralashuv tamoyilida qolishi bilan birga ta'lim va fanga harajatlar strukturasini saqlash yo'li bilan bir vaktning o'zida davlat harajatlarini umumiy xajmini kamaytirish g'oyasini ilgari surdilar. Bunda ular «Inson kapitaliga investitsiyalar»ga alohida ahamiyat berganlar. Bir vaktning o'zida soliq darajalarini qisqartirishni kamomadsiz byudjetni ta'minlash talabi bilan taklif qildilar.

Amerikalik iqtisodchi A.Lafferning soliq kontseptsiyasi neoklassiklar orasida keng tanildi. Bunda yuqori soliq stavkalari iqtisodiy o'sish sur'atlarini cheklashini grafik model asosida isbotladi. Mazkur iqtisodchi tomonidan soliqka tortish bo'yicha tavsiyalar hozirgi sharoitdagi aksariyat mamlakatlar soliq tizimida keng qo'llaniladi.

### 3.5. Zamonaviy monetarizm nazariyasida davlat moliyasiga oid ilmiy qarashlar.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining zamonaviy neoklassik g'oyalari pul siyosatining ustuvorligidan kelib chikadi. Zamonaviy monetarizmning eng yirik namoyondalaridan biri Nobel mukofotining laureati M.Fridmen hisoblanadi. Uning nazariyasiga muvofiq davlatning aralashuvi pul soxsida cheklangan bo'lishi lozim deb ta'kilaydi. Monetar siyosat esa iqtisodiy faollik uchun kulay shart sharoit yaratadi deb ta'kidlaydi. Fridmenning fikricha, amerikadagi inflyatsiyaning asosiy sababi keynschilarning ekspansionistik moliyaviy va pul siyosati deb hisoblaydi. U hisoblaydiki AKShda muomaladagi pul massasining o'sishi 3 sabab bilan belgilangan: xukumat harajatlarining tez o'sishi, to'liq bandlik siyosatini amalga oshirish, Federal zahira tizimini xato pul kredit siyosati. Uning fikricha pul siyosati unga nisbatan talab va taklif muvofiqligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Umuman Fridmennig nazariyasi iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini susaytirish g'oyasini ilgari suradi.

M. Fridmen kontseptsiyasini tasavvur qilish uchun, uning tarafdorlari u yoki bu darajada qo'llab-quvvatlagan asosiy qoidalarni ko'rib chikamiz.

Birinchi qoida - bozor xo'jaligining barqarorligini tan olish. Monetaristlar fikricha, bozor iqtisodiyoti o'zining ichki xususiyatiga ko'ra barqarorlikka, o'zini o'zi tartiblashga intiladi. Bozor rakobati tizimi mustahkam barkarorlikni ta'minlaydi. Mabodo muvozanat bo'zilsa baholar uni to'zatishning bosh vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nomutonosibliklarning vujudga kelishi odatda ichki sababalar natijasida emas, balki tashqaridan bo'ladigan aralashuvlar, davlat tartiblashidagi xatalar natijasi hisoblanadi.

Bozor xo'jaligining barqarorligi to'g'risidagi ushbu qoida J.M.Keynsning iqtisodiyotiga davlat aralashuvining zarurligi to'g'risidagi tasdig'iga qarshi qaratilgandir.

Ikkinchi qoida - pul omilining muhimligi. Iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi turli dastaklar ichida pul dastaklari ustun qo'yiladi. Aynan ular (ma'muriy, baho uslublari

emas, soliq tizimi emas) iqtisodiyotni a'lo darajada barkarorlashtirishga kodir.

Agar J.M.Keyns byudjet siyosatini ancha aniq, tezkor va natijasini oldindan bilish mumkin bo'lgan dastaklar sifatida baholagan bo'lsa, M.Fridmen undan farkli ravishda, pul-kredit siyosatini. ana shunday tavsiflaydi. Uningcha, (Keynsga qaraganda), pul— kredit siyosati iqtisodiy faollikni ancha kuchaytiradi. U pulni ishlab chiqarish, ish bilan bandlik va baholarni aniqlashda yagona bosh omil sifatida karaydi.

Pul — bu maxsus tovar; pulnpng asosiy xususiyati uiing likvidligida. Pulni xohlagan paytda almashtirish, unga har qanday tovarni sotib olish mumkin. Pul maxsus funktsiyani amalga oshiradi, tartiblash, barqarorlashtirish rolini bajarishga qodir. U iqtisodiyotga pulni ishlab chiqaruvchi va moliya siyosatini shakllantiruvchi bank tizimi, institutsional to'zilmalar orqali ta'sir ko'rsatadi. Pul bahoga, ist'emolga bo'lgan talabga, harajatlar darajasiga, ishlab chikdrish hajmiga va to'zilishiga ta'sir ko'rsatadi. M. Fridmen pul harakati (pul massasining o'sish sur'ati) va yalpi ichki mahsulot o'rtasida o'zaro chambarchas bog'liqlik amal qilishiga asoslanadi. Pul massasining o'sish sur'atining tezlashuvi yoki sekinlashuvi faol ish yuritishda, ishlab chiqarishning tsikli tebranishida aks etiladi.

Uchinchi qoida - tartiblash joriy vazifalarga emas, balki uzok. muddatli vazifalarga muljalangan bo'lishi kerak. Gap shundaki, pul massasidagi o'zgarishlar natijasi asosiy iqtisodiy parametrlarda birdan aks ettirilmaydi, balki biroz vaqtdan keyin ta'siri boshlanadi. Odatda lag (vaktincha o'zilish) bir necha oyni tashkil etadi. U shu narsani bildiradiki, pul massasidagi o'zgarishlar yalpi ichki mahsulotga birdan emas, balki bir oz vaktdan (oydan) keyin ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun pul siyosati joriy tartibdagi samaraga va qisqa muddatli o'zgarishlarga muljallangan bulmay, balki o'zok muddatli harakterga ega.

